

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi: mamlakatimizning mustaqillikka erishganiga 29 yil to'lyapti. Bu vaqt ichida mamlakatimizda tub burilishlar bo'lganidan hammamiz xabardor. Ayniqsa, davlatimizda yosh avlodni voyaga yetkazish, xalqimiz farovonligini ta'minlash borasida davlatimiz g'amxo'rlik qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonida 2017-2021-yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir ustuvor vazifalar belgilab berildi. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan [1.5].

Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta'limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti , bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanish zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi ahamiyatli g'oyalardan biridir [1.11]. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Integratsiya - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya” tushunchasi 18-

asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur oʻstirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda taʼlim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Professor R.A. Mavlonova shunday yozadi: “Integratsiya – “butun” degan maʼnoni bildiradi, demak, bu tafakkur oʻsishi jarayonining turli qism va boʻlaklarning yaxlit tizim sifatida shakllantirilishidir” [2.24].

Bu mavzuning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, oʻquvchining mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish uchun ona tili va oʻqish darslarida fanlararo aloqadan foydalanish juda zarurdir.

Tadqiqot obyekti va predmeti: boshlangʻich sinflarda ona tili va oʻqish jarayoni. Boshlangʻich taʼlim ona tili va oʻqish darslarida integratsion yondashuvning mazmuni, vositalari, shakl va metodlari.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: ona tili va oʻqish darslarida fanlararo aloqadorlikka oid ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

1. Integratsion yondashuvning mazmun – mohiyatini yoritish
2. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish darslarida fanlararo aloqadan foydalanish imkoniyatlarini ochib koʻrsatish
3. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish darslarida integratsion yondashuvga oid ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorlik darajasini aniqlash.

Ilmiy yangiligi: ona tili va oʻqish darslarida fanlararo aloqaning nazariy va amaliy talqini izohlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

- integratsion yondashuv jarayonida oʻquvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari hisobga olinsa;
- boshlangʻich taʼlimga integratsion yondashuvning yaxlit tizimi ishlab chiqilsa;
- ona tili va oʻqish darslarini integratsiyalashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, taʼlim jarayonida samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi (tahlili): integratsiyalashgan taʼlim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur

pedagoglarning (Y.A.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbart, M. Pestalotsi, K. Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova va boshqalar) psixolog olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagina, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bir qator ishlar (T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytayp, G.V.Baltyukova, N.Y.Valenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, R.G.Matyushova) boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangan.

Adabiyotlarni o‘rganish mobaynida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta’lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo‘riqish sarflanishining oldi olinadi. Shuning uchun biz aynan boshlang‘ich ta’limning ona tili va o‘qish darslarida fanlararo aloqadorlik muammosini tadqiq etishni rejalashtirdik. Boshlang‘ich sinflarda integratsion yondashuv jarayonlari o‘rganib chiqilgan, ammo ona tili va o‘qish darslarida fanlararo aloqa alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotda qo‘llangan metodikaning tavsifi: dissertatsiya ustida ishlash jarayonida falsafiy, psixologik, didaktik, metodik adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik tajribani umumlashtirish, ta’lim konsepsiyalari, o‘quv dasturlari, darsliklarni tahlil qilish, pedagogik tajriba, kuzatish qiyoslash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: tadqiqotning xulosa va natijalaridan umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ish faoliyatida, pedagogik amaliyotida, mazkur mavzu doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan tadqiqotchi izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi: ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, 7fasl, har bir bob bo‘yicha xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. FANLARARO ALOQADORLIK O‘RNATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Ta’limda integratsion yondashuv

Integratsiya jarayonining ildizi uzoq o‘tmishdagi klassik pedagogikaga borib taqaladi hamda fanlararo bog‘liqlik g‘oyasi bilan ifodalanib, o‘quv materialini mazmunini o‘rganish, tabiatni yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi.

Integratsiya jarayoni differensatsiya bilan mustahkam aloqaga ega bo‘lib, mazkur jarayonlar o‘quv fanlarining tanlanishida, tuzilishida va o‘quvchilar bilimini umumlashtirishda o‘z aksini topadi.

Integratsiya - differensatsiya jarayonlaridagi fanlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bog‘liqligida ko‘rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog‘liqlikning yuqori shaklida namoyon bo‘ladi. Fanlarni integratsiyalab o‘qitish muammosini hal etish uchun fanlarning paydo bo‘lishi tarixi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Buning uchun fanlarning rivojlanish tarixini bilish lozim. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o‘qitish muammosining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo‘lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo‘lganligini, kelgusida qanday fanlar bo‘lishi lozimligi haqida fikr yuritish mumkin. Fanlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaganlar, atrof-muhitda sodir bo‘ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo‘lishgan, xolos. Keyinchalik hodisa, jarayonlarning sodir bo‘lishini kuzatibgina qolmay, ma’lumotlar to‘plab, tahlil qila boshlaganlar. Insonlarning ehtiyojlari, mehnat qurollarining takomillashib borishi, tevarak atrofdagi olam to‘g‘risida tasavvurlarning rivojlanishi, tabiat hodisalarga munosabatning shakllanishi, to‘plangan bilimlarni, tajribalarni yig‘ish zaruriyati vujudga keldi. Qadimgi Yunoniston va Sharqda (eramizdan oldingi VI-V asrlar (“Avesto”) falsafa bilan birgalikda naturfalsafa ham yuzaga kelgan. Tabiiyotni fan sifatida rivoj topishi (eramizdan oldingi, 384-322 yillar) Aristotelning “Fizika”, “Metafizika”

asarlarida o'z aksini topgan. Fanlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, tarmoqlanishi, ularning o'zaro ta'siri natijasida yangi hosilaviy fanlarning paydo bo'lishini quyidagi modul orqali ifoda etish mumkin.

Fanlarning taraqqiyot moduli.

I. Falsafa

II. Naturfalsafa

1. Astronomiya

2. Astrofizika

V. Fizika

1. Mexanika

2. Elektr

3. Molekulyar fizika

VI. Ijtimoiy fanlar

1. Ona tili

2. Adabiyot

3. Tarix

4. Jamiyatshunoslik

5. Ma'naviyat

6. Jismoniy tarbiya

VII. Matematika

1. Algebra

2. Geometriya

VIII. Kimyo

1. Anorganik kimyo

2. Organik kimyo

3. Polimerlar kimyosi

IX. Geografiya.

1. Geologiya

2. Tuproqshunoslik

3. Geofizika

III. Tabiiyot

IV. Kosmologiya

3. Kosmonavtika

4. Biokosmos

4. Optika

5. Atom va yadro fizikasi

6. Kvant fizikasi

7. Elementar zarrachalar fizikasi

7. Huquq

8. Mehnat

9. Vatan tuyg'usi

10. Xorijiy tillar

11. Tasviriy san'at

12. Musiqa.

3. Trigonometriya

4. Matematik analiz

4. Kristallar kimyosi

5. Fizkolloid kimyo

6. Analitik kimyo

4. Tabiiy geografiya

5. Iqtisodiy geografiya

6. Siyosiy geografiya

X. Texnika

1. Kibernetika
2. Informatika

XI. Biologiya

1. Botanika
2. Anatomiya
3. Zoologiya
4. Meditsina
5. Fiziologiya

3. Elektrotexnika

4. Bionika
5. Sinergetika
6. Embrologiya
7. Genetika
8. Sitologiya
9. Molekulyar biologiya
10. Biokimyo
11. Radiobiologiya

Tabiatni fan sifatida o'rganishga va rivojlantirishga Forobiy (950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) katta hissalarini qo'shganlar. XII asr G'arbiy Yevropada Yevklid, Geron, Ptolemey, Galen, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning tabiatshunoslikka oid asarlari tarjima qilinib o'rganilgan. Shuning uchun bu asr "tarjima" asri deb atalgan. XII-XIV asr G'arbiy Yevropada ishlab chiqarish kuchlari, savdo-sotiqning rivojlanishi, fanlarning qayta "Uyg'onish"ga tayyorgarlik ko'rish davri bo'lgan. XVI-XVII asrlardan boshlab Yevropadagi barcha yirik davlatlarda, sanoat rivojlanadi. Bu davrda texnika vujudga keladi, mexanik qurollar va mashinalar ixtiro etilib, ishlab chiqarishga tadbqiq etila boshlandi. Fan namoyandalarining tabiat qonunlarini tinmay o'rganishlari natijasida, tabiiyot fanlarining yangidan yangi sohalari vujudga keldi [2.32]. Buyuk didaktik olim Yan Amos Komenskiy bu xususida shunday yozadi: "Barcha o'zaro bog'liqliklar aynan ana shu bog'liqlikda o'rganilishi zarur". Keyinchalik ko'plab olimlar mazkur fikrni umumlashtirgan holda uni yanada rivojlantirdilar. D.Lokkning g'oyalari ta'limning mazmunini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda bir fan ikkinchi fanning elementlari va misollari asosiga boyitilishi nazarda tutiladi. Nemis o'qituvchisi F.Yunge sakkizta tushuncha va empirik umumlashmalar asosida, birinchilardan bo'lib, tabiat fanlarini integratsiyalab o'qitishga tayangan kursni ishlab chiqdi. I.G.Pestalotsi katta didaktik material asosida o'quv fanlarining turli yo'nalishdagi o'zaro bog'liqliklarini yoritib berdi.

Bunda u “O‘z ongingda barcha o‘zaro aloqador predmetlarni bog‘liqligini ular jonli tabiatda aynan qanday bog‘liq holda bo‘lsalar aynan shu holda tasavvur qilgin” deb talab qiladi. U bir fanning ikkinchi fandan ajratib olinishidagi alohida noo‘rin jihatlarini ham asoslab berdi. Klassik pedagogika namoyandasi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1870) fanlararo bog‘liqligining psixologik-pedagogik asosini anchayin to‘liqroq holda ishlab chiqdi. Uning fikriga ko‘ra “Ma‘lum qilinayotgan bilim va g‘oyalar organik jihatdan fanda qanday bo‘lsalar, shunday tarzda o‘rganilishi zarur”. XX asrning 20-yillarda “Tabiat”, “Mehnat” va “Jamiyat” mavzusidagi integrativ kurslar yaratildi. Boshlang‘ich 1-4 sinflar uchun “Atrof olam” va yuqori 5-7 sinflar uchun “Tabiatshunoslik” integrativ kurslari yaratildi. Bu kurslarda tabiat, inson va jamiyat haqidagi o‘quv materiallari o‘zaro bog‘lanishda aks ettirilgan.

Ta‘lim integratsiyasining bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta‘minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi. Integratsiyalashgan ta‘lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo‘lib qoldi [2.25]. Fransuz olimi D.Dyuining fikricha, “Ayni paytda ta‘limda uning og‘irlik markazini siljitishga qaratilgan o‘zgartirishlar boshlandi. Bu o‘zgarishlar, Kopernikning tabiatshunoslikda olam markazini yerdan Quyoshga siljitgan inqilobga juda o‘xshab ketadi. Bizning misolimizda bola (o‘quvchi) Quyosh kabi, uning atrofida esa ta‘lim vositalari aylanadi. Bola atrofida shakllantirilayotgan vositalarning markazidir”, deb qaraladi. V.I.Zverev integratsiyani uzviy bog‘lanish, yaxlitlikni yaratish, turli o‘quv predmetlari elementlarini uyg‘unlashtirish asosida yagona sintezlash jarayoni, deb tushuntiradi. G.F.Fedorsovning integrativ – tematik yondashuvi ham fanlarni integratsiyalab o‘qitishning pedagogik asoslari bo‘lib hisoblanadi. Integrativ – tematik yondashuvda o‘quv jarayonining mazmuni, metodik va tashkiliy birligi sifatida o‘quv fanining mavzusi (bo‘limi) olinadi. Har bir mavzuning yetakchi g‘oyalari bir tomondan kursning yetakchi g‘oyalariga tegishli bo‘ladi, ikkinchi tomondan bu g‘oyalar mohiyatini ochib beradi, ya‘ni mavzuni o‘rganish jarayonida yetakchi g‘oyalar aniqlashtiriladi. O‘quv fanining yetakchi g‘oyalari

(tushunchalar, qonunlar, hodisalar va nazariyalar) o'rganadigan materiallarning mohiyatini ifodalaydi, ichki birligi va organik yaxlitligini ta'minlaydi. Bunday yondashuv o'qitishni sarmazmun va metodik birlikdagi uyushgan, samarali tashkil etishga yordam beradi.

Integratsiya muammolari bilan ko'p shug'ullangan K.D.Ushinskiy V.Ya.Styunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov kabi pedagoglar fanlararo bog'liqlik nazariyasining metodik ishlanmasini yaratishga e'tibor qaratdilar. Yetuk klassik pedagoglar I.D.Zvereva, M.A.Danilova, V.N.Maksimovoy, S.P.Baranova, N.M. Skatkina; psixolog-olimlar N.Talzina, Yu.A.Samarina, G.I. Vergelis, M.G. Davletshin, E.G'oziev, B.Vohidov va boshqalar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni takomillashtirishning ayrim jihatlarini o'rganganlar. Shuningdek, bir qator ishlar boshlang'ich ta'limda fanlararo bog'liqlik va fan ichidagi bog'liqlik ishlariga bag'ishlangan (T.L.Ramzayeva, G.N.Akvileva, N.Ya.Vilenkin, G.V. Beltyukova, M.Maxmutov, R.A.Mavlonova va boshqalar). XIX asrning o'rtalaridayoq G'arbiy yevropaning ko'plab davlatlarida (ko'proq Germaniyada) dastlabki kompleks dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Bunda mualliflar o'rganilayotgan hodisalarni yagona o'zakka birlashtirish g'oyasini ilgari surganlar. Ko'pincha bu bizni o'rab olgan joy bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, mehnat jarayonlari va madaniy jarayonlar bilan bir butunlikda bog'liq bo'lardi. XIX asrning oxiri va XX asrlar boshlarida integratsiya g'oyasi yetakchi xarakter kasb etdi. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, an'anaviy ta'limdagi integrativ yondashuvlar yetakchi rol o'ynay boshladi

Hozirgi vaqtda o'qitish va ta'lim berishdagi integratsiya muammosiga yanada kuchli e'tibor qaratilmoqda. Biroq, yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, integratsiya jarayon sifatida fundamental ilmda ham uning shahobchalarida ham paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda zamonaviy maktabda integratsiyani pedagogik muammolarni yechimini topuvchi, maktabdagi faoliyatni yaxshilashga, pedagoglar jamoasini salohiyatini oshiruvchi, ularga ta'sir etishning optimal yo'llarini topishga xizmat qiluvchi omil deb qaralmoqda. Integratsiya pedagogik holat sifatida ikkita an'anaga ega: avvalo, aytish lozimki,

ayrim maktab fanlari integrativ xarakterga ega. Ko‘pincha bu fan ichidagi integratsiya darajasi bo‘lib, masalan, savodga o‘rgatish darslari (o‘qishni va yozishni o‘rgatish) – o‘sha davridayoq integratsiyalashgan dars edi. (K.D.Ushinskiy davridayoq bu darslar integratsiya tarzida olib borilgan) Shuningdek, maktabdagi adabiyot darsi yagona maqsad asosida amalga oshirilgan. Bunda o‘zaro bog‘langan adabiyotni o‘rganish, o‘qish malakasini takomillashtirish, ijodiy fikrlash, ijod qilish malakalarini birlashtirishga qaratilganligi fikrimizga dalildir. Biroq, bugungi kunda maktab predmetlarini birlashtirishga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlandi. Fanlararo bog‘liqlikdan turli bir-biriga yaqin bo‘lgan predmetlarni yaqinlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosiga murojaat qilinmoqda. Ta’limdagi integratsiyaning mohiyati nima bilan xarakterlanadi?

“Integratsiya” tushunchasi ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda ikkita ma’noni anglatadi: birinchidan, bu maktab o‘quvchilarida bizni o‘rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta’lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi); ikkinchidan, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta’lim vositasi sifatida qaraladi).

Professor R.A.Mavlonovanning ta’lim jarayonidagi integratsiya muammolariga oid fikrlarini ko‘rib chiqamiz. U integrativ ta’limni quyidagicha sinflarga bo‘lgan. Jumladan, ko‘p fanlar integratsiyasini universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o‘qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish. Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma’lum tizimga keltirishadi va o‘z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta’lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to‘g‘ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba’zi e’tiborli olimlar ta’kidlaydilarki, bu an’anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma - ket o‘rganish yo‘li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang‘ich ta’limga ham darslarga ajratib o‘qitish an’analarini tarqalgan deb hisoblaydilar. Tabiiy fanlarni o‘qitishning tizim bo‘yicha

davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi Tabiatshunoslik) kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar. Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi. Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir - biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekulyar biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar. Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi kibernetika-boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash, informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika kabi fanlar bor. Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar. Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: "materiya", "harakat", "modda", "maydon", "energiya" va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarning ish faoliyati tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi. Nazariyalar orasida integrativ

kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy - ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovishmaganligi va ma'lum ketma - ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi. Fan evolyusiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar. Yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tadbqiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab ish faoliyatida qo'llaniluvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q. Kompleks obyektlar asosida. Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks obyektlarga yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir obyekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi. Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarda maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosida. Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbqiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning iqtisod, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadidagan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

Faoliyat asosida. Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish - turli o'quv ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar.

O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tadbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar. Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir? Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflar sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

Birinchidan. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir - birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

Ikkinchidan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchidan. Tabiiy ilmiy ta'limning optimal tuzilishi shundayki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To'rtinchidan. To'liq o'quv metodik qo'llanmalarning yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tadbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning avtorlari programma tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qoladilar.

Beshinchidan. Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali yetilgani yo'q. Shunday qilib, integratsiya o'quv fanlari orasidagi tizimli bog'liqliklarni rad etmaydi. Aksincha, u fanlararo bog'liqlikni, fanlarning bir-birini taqozo etishi, to'ldirishi, mukammalashuvi

uchun yo‘l ochib beradi. Pedagogik ilmlarning vazifasi - o‘qituvchiga turli fanlarning alohida elementlari yagona bir butunlikka birlashtirish asosida integrallab o‘rgatishga yordam beradi.

Adabiyotlarni o‘rganish, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimiz mobaynida shunga amin bo‘ldikki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, keyinroq esa maktab bitiruvchilari, ayrim fanlarni o‘rganganliklari holda ayrim o‘rganganlarini hayotda “elementar” bilimlarni qo‘llashda qiyinchilik his qiladilar. Ularga olgan bilimlarini amalda kerakli o‘rinda qo‘llash uchun mustaqil fikrlash malakalari yetishmaydi. Bu holat sabablaridan biri boshlang‘ich ta’limda turli fanlarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilmaganligidan bo‘ladi. Bunda integratsiya faoliyatni o‘zgartirish yoki bilimlarni bir fandan ikkinchisiga o‘tkazish bo‘lmay, balki zamonviy ilmiy bilimlarni integratsiyalash asosidagi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratishdan iborat degan qonuniyat rad etiladi.

S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninlarning “Pedagogika” kitobida darslarda qo‘llaniladigan fanlararo bog‘lanish ko‘rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta’lim muammolari aks etmaydi. L.N.Baxarevaning Rossiya nashri bo‘lgan «Начальная школа» jurnalida chop etilgan “Boshlang‘ich maktab o‘quv mashg‘ulotlarini o‘lkashunoslik asosida integratsiyalash” nomli maqolasida integratsiyaga ko‘plab fanlarni umumlashtirish va bog‘lash jarayoni deb qarab, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori ko‘rinishi” - deb, ta’rif beradi.

Psixolog E. N. Kabanova integratsiyani: “O‘qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim ko‘nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko‘chirilishida aqliy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichi”, deb baholasa, L.P.Elinko o‘zining “Boshlang‘ich sinflarda ta’limni integratsiyalash tajribasi” nomli maqolasida maktab ta’limini integratsiyalashning muhimligini ta’kidlasa, L.P.Elenkonin integratsiya darslarni samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar orasidagi aloqalarini yangi pog‘onalarga ko‘tarish shakli deb hisoblaydi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, integratsiyani o‘qituvchilarning turli fanlar bo‘yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi

yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo'lmay, balki fanlararo sintez bo'lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

A.G'ulomov hamda H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, integrativ jarayonlar boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni har tomonlama bilimli qilish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunda o'quvchilar badiiy uslubni adabiyot fanidan, ilmiy uslubni biologiyadan, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari nazarda tutiladi. Integratsiyaning mazmun mohiyati Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: "Bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi". Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi. Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi. Integrativ ta'limda fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish o'rganiladi. Integrativ ta'lim zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, kibernetika – boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash, informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi fan informatikani kiritish mumkin.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad-vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Tadqiqot mobaynida shunga amin bo'ldikki, boshlang'ich sinf o'quvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilim ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishda qo'llashga qiynalyaptilar, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni o'shxash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari yetishmayapti. Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lyapti. Bu holatda integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatining almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi deduktiv ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, teng keladigan narsa) larni yaratish jarayonidir.

Boshlang'ich sinf ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan ta'lim yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondoshish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda gap faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan. Oxirgi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida juda ko'p gapirilib kelinmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirmoqdalar. Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga

kiritilgan. Bu ekologik yoʻnalishga ega boʻlgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida oʻquvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi toʻgʻrisida xabar beradi.

Integratsiya xususidagi ijobiy fikrlar bilan bir qatorda uning salbiy omillari xususida ham fikrlar mavjud. Jumladan, Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko: “Oʻquv predmetlarining chegaralangan soni – olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmunini, olamning haqiqiy koʻrinishini, qismlarining oʻzaro bogʻliqligini aks ettira olmaydi” - deb, fanlararo integratsiyaga salbiy munosabat bildiradilar.

Juda muhim boʻlgan oʻqish, yozish va sanoq koʻnikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga boʻlinib oʻqitishni talab qiladiganga oʻxshaydi. Lekin oʻqish va matematikaga oʻqitishning anʼanaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda oʻqish fan sifatida oʻz ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik, matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni ham oʻz ichiga oladi. Bunday integratsiya oʻquvchilarda maʼlum bir fan yuzasidan muhim koʻnikmalar hosil qilishga halal bermaydi, aksincha, ularni yaxshi oʻzlashtirishiga kafolat beradi.

Robert Karlosning aytishicha, boshlangʻich sinf faqat oʻqish, yozish va sanashni oʻrgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Uning fikricha, integratsiyalangan taʼlim har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida uning intellektual faolligini ragʻbatlantirishi, taʼlim jarayonini bolalarga tushunarli va qiziqarli boʻlishini taʼminlashi darkor. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun integratsiyalashgan taʼlimni amaliyotda tekshirilgan eng maʼqul uslublarni ishlab chiqish hamda oʻqituvchilarni mazkur uslublar bilan qurollantirish, uni amaliyotda qoʻllashga oʻrgatishdan iboratdir.

XIX-XX asrlar oraligʻida pedagogikada kichik maktab oʻquvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursini yaratish fikri paydo boʻlgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bogʻliq boʻlib, ular boshlangʻich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi boʻlinmagan kursni kirgizishni talab qilishdi [2.18].

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlarini mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotsi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, M.N.Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova-Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), metodist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir.(T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V.Baltukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R. G. Matushova.)

Boshlang'ich sinf fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p.Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

Intergratsiya lotincha integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.
2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni [2.33].

Differentsiatsiya fransuzcha differentiofion, lotincha differentia — farq, birxillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash — dunyo an'anasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat—jamiyat—inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish obyektni yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarini qanday qilib maktab ta’limida qo‘llash mumkin? Zamonaviy didaktika va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog‘liq. Ta’limdagi integratsiya o‘quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko‘rib chiqiladi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang‘ich va o‘rta maktab ta’limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning «Pedagogika» kitobida darslarda qo‘llaniladigan fanlararo bog‘lanish ko‘rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta’lim muammolari aks etmagan.

“Boshlang‘ich talim” jurnallarida maktab ta’limini integratsiyalash muammosiga katta ahamiyat beriladi. L.N.Baxareva o‘zining “Boshlang‘ich maktab o‘quv mashg‘ulotlarini o‘lkashunoslik asosida integratsiyalash” maqolasida “Integratsiya — differenssiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog‘lash jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko‘rmishdir”, deb ta’kidlaydi.

O‘quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarini bartaraf etish yo‘li bo‘lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv — differenssiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

1.2 Boshlang‘ich ta’limda fanlararo aloqadorlikni tashkil etish

Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo‘lib

hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Bugungi kunda biror bir lug‘atda integratsiyaning metodik jihatdan mazmuni haqida bironta so‘zni uchratish mumkin emas, ammo lug‘aviy ma‘nosi izohlangan. Lekin integratsiya so‘zining ma‘nosi hammamiz uchun yaxshi tanish. I.Kololojvari, L.Sechenikovalar integratsiyaning metodik xarakterini “Integrativ darslarni qanday tashkil etish mumkin?” nomli maqolalarida quyidagicha tasniflaydilar: «...integratsiyalashgan darslarning imkoniyatlarini to‘rt yil o‘rganish natijasida bu metodikaning kelajagi katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Unga ko‘ra o‘quvchilar ongida bizni o‘rab turgan dunyo haqida yanada to‘liq va atroflicha keng tasavvur hosil qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar o‘z bilimlarini amaliyotda yanada faol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, chunki bunda bilimlarning tub mohiyati yanada keng ochib berish imkoniyati, olamni bir butunlikda tasavvur qilish imkoniyati mavjud. O‘qituvchi fanga oid bilimni berishda uni boshqa fanlar ma‘lumotlari bilan solishtirish asosida yanada boyitadi, to‘ldiradi”. Maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma‘lum bir imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog‘liqdir. Shuning uchun pedagoglar va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarni barchasini e‘tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o‘qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim. O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiya metodidan foydalanish ham bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo‘lishlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Misol uchun katta hajmdagi matnni savodli ko‘chirib olish uchun uni tez va to‘g‘ri o‘qiy olish malakasi talab qilinadi. Agar bunday imkoniyat haqida gapirmasdan turib, o‘qituvchi o‘rgatiladigan har bir fanni boshqasi bilan solishtirmasdan, taqqoslamasdan, uning ma‘lumotlaridan foydalanmasdan o‘rgatishi anchayin qiyin va zararli bo‘lishi mumkinligini his qilishi zarur. Axir

biz dunyo yagona bir butun ekanligini his qilib boryapmiz, sababi bir mavzuni yoritish uchun boshqa bir sohalarga murojaat qilmasdan iloji yo‘qligi kunday ravshan bo‘lib bormoqda. Bunday hollarda taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yishdan foydalaniladiki, bu esa integratsiya hisoblanadi. Dasturdagi ko‘plab fanlarda “to‘qnashish” mavjud: bunda ma’lum bir obyektни o‘rganishda mavzular, muammolar, savollar bir xilligiga ro‘para bo‘linadi. Bularning barchasi esa hech bo‘lmaganda bitta mavzuga doir integratsiyaga bo‘lgan “talab”ni ifodalaydi. Boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘qitish uchun modulli dars texnologiyalariga amal qilmoq joiz. Chunki bunday darslar o‘quvchilarni ijod qilishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo‘llaniladi. Ulardan biri bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish g‘oyasidir. Bugungi kunda mazkur masalada ko‘plab xorijiy mamlakatlar olimlari boshlang‘ich maktablarining o‘ziga xos xususiyatini integratsiyalash muammolarini tadqiq etayotganliklarida ko‘rish mumkin. Ular ilgari surayotgan ayrim ta’limotlar mohiyatiga to‘xtalamiz. Integrativ ta’limning bosh maqsadi bolani tabiat, jamiyat, fan, san’at bilan, bir so‘z bilan aytganda dunyo bilan suhbatga tortish, mazkur suhbat mobaynida faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o‘simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan tildan foydalanishga yo‘naltirish g‘oyasi, kichik maktab o‘quvchisiga fikr doirasi keng bo‘lgan muloqot san’atining boshlang‘ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o‘z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o‘z-o‘zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi, integrativ ta’limning maqsadlaridan yana biri o‘zi yashayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog‘liqlik, o‘zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma’naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg‘u faqat ma’lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga

beriladi. Olamning umumiy ko‘rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o‘zini o‘rganuvchi, tekshiruvchi o‘rniga qo‘yadi. Integrativlik insonning olam bilan o‘zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida abstrakt bo‘lgan uzoq (kosmos, yulduzlar, yer planetasi, katta bo‘shliqlar va vaqt qa‘ri) va yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o‘simlik dunyosi, ona Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati) haqida yaxlit tasavvur hosil qilishi. Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma‘naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari). Bir so‘z bilan aytganda, shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlarini, tillarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochish - integrativ ta’limning asosiy mantiqidir. Murakkab dunyoqarashlar, ilmiy, badiiy g‘oyalar bola tushunishi uchun qulay, tasvirli mavzularda o‘z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim shu kursning o‘ziga xos xususiyatidir. Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qahramonlari (“Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘ri va egri”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Tulki bilan turna”, “Kichik shahzoda”, “Karlson”, va boshq.)ni kiritilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ular mavzudan mavzuga yetaklab, yangi narsalarni bilib olishga yordam beradi. Ular bolani mavzudan mavzuga yetaklab yurgandek, ular bilan bola inson bilan muloqot qiladi va yangi narsalarni bilib oladi. Integrativ ta’lim shaxsga moslangan yo‘nalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida ko‘rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda “O‘z yulduzingni yoq”, “Guldastada sening guling”, “Sen sevgan kitob” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin davomida diqqat-e’tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, tug‘ilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldasta bayram egasiga yoqadigan gul bilan boyiydi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini to‘ldirish bilan birga egasiga (imzosi) ega bo‘ladi. Kichik maktab

yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi ishlar bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi. Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Darslar bolalarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini, materialini ushlab ko'rib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuyg'ularini (hid va ta'mni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. "Ovchilar", "Hayvonlar", "Izquvarlar" o'yinlarini o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanishiga yo'ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san'at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin. Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq holda bolani faol harakat qilishga, o'z holatini tana harakatlari, imo-ishoralari, raqs orqali ko'rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Adabiyotlarni o'rganish, tadqiqot ishini yozish mobaynida integrativ ta'limni tashkil qilishda dastlab ikki soatlik darslarni kiritishni rejalashtirdik. Buni hafta oxiridagi ikki soatlik darslar ko'rinishida shakllantirdik. Ta'lim maqsadiga muvofiq, bunda bolalar, bir tomondan, asosiy darslardan ancha dam olishadi, ikkinchi tomondan, keyingi haftadagi darslarga tayyorlanishadi. Bunday ikki soatlik darslarni "Ijod soati", "Xayol (orzu) darsi" deb nomlash mumkin. Dars o'tishdagi asosiy shartlardan biri – sinfda o'qituvchi va o'quvchilar uchun mutanosib muhitini yaratish: polga gilam solish, partalar o'rnini, o'quvchilar uchun qulay bo'lgan stul va kreslolar bilan almashtirish. Bunday mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusi

“Devorlardagi suratlar”, “Hayvonot va o‘simliklar dunyosi” paydo bo‘ladi, bularni o‘quvchilar o‘zlari o‘ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma’lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, kartalardan foydalanish mumkin. Bu mazmundagi darslarni sinfdan va maktabdan tashqarida o‘tkazish ham kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko‘chalarda o‘tiladigan darslar odatiy bo‘lib qoladi. Shu tariqa integrativ ta’lim ustidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo‘l juda qiyin. Qiyin muammolarni hal qilish, yo‘l topish lozim. Bolgariyalik olimlar 10-12yoshli bolalarga mo‘ljallangan o‘qish, yozish va og‘zaki nutq “til san’ati”ga tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslik, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘z ichiga olgan tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirgan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Integratsiyaning bunday usuli to‘liqsiz va to‘liq o‘rta maktablarda qo‘llaniladi. AQSH o‘rta maktablarining katta sinflarida o‘z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni oluvchi “yerni o‘rganish” fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan “Fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan kurs yuqori sinflarning o‘quv rejasiga kiritilgan.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayonida foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari natijasi o‘laroq yangi o‘quv rejalari va dasturlarga o‘tish mobaynida jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning tevarak atrofdagi voqea va hodisalarga nisbatan jiddiy munosabatlarining poydevori boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarga matematika, o‘qish, tabiat haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni va yana ko‘pgina narsalarni o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘zining kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda har bir o‘qituvchining dars berishini, alohida olingan

integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo‘ladi. Integratsiyaning amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o‘girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o‘quvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo‘yilishi integratsiyaning turli ta‘lim pog‘onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich maktabda integratsiyaning bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta‘limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang‘ich ta‘lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi.

O‘qituvchining ijodkorligi shundaki, ular fan uchun ma‘lum, ammo o‘quvchi bilmaydigan tomonlarni, avvalo, o‘zi loyihalaydi va o‘quvchilarini ham shunga undaydi. Modomiki, shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur o‘stirish uchun modul darslarini tashkil qilish orqali integratsiyaning amalga oshirish samarali usul hisoblanadi [2.28].

Integratsiya go‘yoki bilim berishda zarur emasga o‘xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo‘l bo‘lib, u orqali o‘quvchilar dunyoqarashi kengayadi: o‘qish darslarini ona tili, odobnoma, shuningdek, rasm, tabiatshunoslik va mehnat fanlari bilan bog‘lab o‘qitish uchun modulli darsning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O‘quvchilarni ijod qilishga o‘rgatish, izlanishga yo‘naltirish, tasavvur, fantaziya hosil qilish, o‘qitishning zamonaviy usullariga kiradi. Jumladan, o‘qituvchi darsga kirib, o‘quvchilarni munozaraga chorlaydi: “Bolalar, behi gulini hech kuzatganmisiz, uni batafsil tasvirlab bera olasizmi?” deya murojaat qiladi. So‘ngra sinfdagi o‘quvchilarni ikkita guruhga bo‘linib, ularning biri behi gulini og‘zaki ta‘rif etadilar, ikkinchisi esa behi gulining tasvirini chizadilar. So‘ngra shu asosda ular bahsga kirishadilar, o‘qituvchi ularning fikrlariga yakun yasab, shoira T.Sodiqovanning “Gul fasli” she‘rini ifodali qilib aytib beradi. She‘rni ifodali qilib

aytishga o'rgatish ta'sirchanlikni oshiradi, o'qishga muhabbat uyg'otadi (integratsiyaga erishiladi). She'rni tinglaganlaridan so'ng 1- guruh ushbu she'r tarkibidagi ot so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtiradilar, 2- guruh esa fe'l so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtirib yozadilar (yoki har qanday grammatik topshiriqni bajartirish mumkin). Masalan,

Borliq, dunyo, olam...

Dovuchcha, g'o'ra...

Yog'ar, quyar, sevalar...

Ona tilini o'qish bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilar faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida paydo bo'lgan harakat tufayli tafakkur rivojlanadi. Ma'lumki, o'zlashtirish jarayoni materialni his etish, anglash, bilish va malaka hosil qilish kabi holatlardan iborat. Fanlararo aloqa o'quvchilarda oldin o'zlashtirilganlarini yangi bilim bilan boyitishga, fakt va hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritadigan, o'z fikrini erkin bayon etadigan bo'lishiga erishish uchun integrativ darslar tashkil qilishi, bilimlarni egallashga motivatsiya uyg'otishi zarur hisoblanadi. Shundan so'ng she'rga mos rasm chizishlari so'raladi. So'ngra o'quvchilar chizgan rasmlarini og'zaki tasvirlab beradilar. Shu jarayonda ularning nutqi ham rivojlanadi. Berilgan topshiriq produktiv darajada bo'lib, o'quvchilar o'zlari tuzgan reja asosida fantaziya qiladilar. Produktiv darajali topshiriqlar didaktik ahamiyatga egadir. Chunki bunday topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar mantiqiy fikr qiladilar, topshiriqlarni tahlil qilish asosida xulosa chiqaradilar. 4-sinf "O'qish kitobi"dagi lola haqidagi qo'shiqni ana shunday holatda o'tish mumkin. Qo'shiq matnidagi tabiatshunoslik faniga oid atamalar o'rganiladi va ular tahlil qilanadi. Shu bilan birga, o'quvchilar lola qanday ochilayotganligini tasavvur qiladilar - fantaziya hosil qiladilar, lolaning rangi, uning bahor elchisi ekanligi, qir-adirlarni qoplab, go'zal manzara hosil qilishi kabilarni ko'z oldiga keltiradi va o'z tasavvurlarini ta'riflaydi. Tasvirlash bu ko'z oldida namoyon qilish, o'qish darsidagi tasvir vositalarini topish, izlash va

ta'riflash demakdir. Ya'ni bunda tinglash, tasavvur qilish, tushunish, fahmlash, xotiraga joylash, o'zlashtirish kabi aqliy faoliyat ro'y beradi. Biror narsa haqida fikr-mushohada qilish aqliy zukkolikning yuqori bosqichidir. Aqliy zukkolik inson xotirasi va zehni bilan bog'liqdir. Integratsiya asosida modul darslarini tashkil qilishda aqliy zukkolikning har ikki bosqichi ro'y beradi. O'qituvchi topishmoqni aytganda eslab qolishda xotira ishga tushadi. Xotirani mustahkamlash va rivojlantirish azaldan ta'limning asosiy talabi bo'lib kelgan. Zehn rivojlanishida ijod qilish muhim rol o'ynaydi. Integrativ darslarni tashkil qilishda ijod qilish orqali o'quvchilarning zehni rivojlantirish mumkin.

Fanlararo aloqa darslaridagi ko'pgina mashqlar o'quvchini izlashga, fikrlashga, o'qish darslarini ona tili, odobnoma, rasm, tabiatshunoslik, mehnat fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli dars g'oyasidagi hodisalarni taqqoslashga, ijodiy kashfiyot qilishga o'rgatadi. Demak, integratsiya ijodiylik, zukkolik, xotirani mustahkamlash, izlanish, tasavvur hosil qilish demakdir. Tasavvur hosil qilish natijasida ijodkorlik ruhi paydo bo'ladi, ijodkorlik esa tafakkur rivojiga turtki beradi. Shuning uchun ham o'quv fanlari orasidagi aloqani bilish, ta'lim jarayonida ana shu qonuniyatlarga asoslanish muhimdir.

Boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari

bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Kursning maqsadidan yana biri — o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi xususida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgina emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning uimimiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kurs ta'limi kichik maktab o'quvchilarining parallel ravishda asosiy fanlarni o'rganishlari hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratilishga xizmat qiladi.

Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (fikrlar)ning gorizontal harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinfdan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab, murakkablashib boradi. Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer kurrasi, katta bo'shliqlar va vaqt qadri). Yaqin olam (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simlik dunyosi, ona Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati). Insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari). Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlari, tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochish — kurs tizimining asosiy mantiqidir. Kurs oddiylikdan murakkablikka, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka, chaqqonlikdan mohirlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining "g'ishtchalari" bilan tanishadi, olamning boshlanishga, insonning yerda paydo

bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar jumboqlarini ochish yuzasidan flkrlaydi, o'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga o'tlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligi va turli-tumanligini his qiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlar bolalarda ko'rish va eshitish, materiallar sifatini ushlab ko'rib, ajrata bilish qobiliyati, sezish tuyg'usini (hid va ta'mni ajrata olish) rivojlantirishga yordam beradi. "Ovchilar", "Hayvonlar", "Izquvarlar"ni o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta olishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanish yo'lidir. Bunga yorqin tasvirlarga, san'at asarlari, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, bir qator mamlakatlar tajribalari ko'rsatishicha, integratsiyalangan kurslar qulay shakl bo'lib qoldi. Maktabda o'qitiladigan fanlarni bir butun tizimli ravishda o'qitish imkoniyati tug'ilganga o'xshaydi. Lekin shunday savol tug'iladi: bu kursni qanday o'qituvchi o'qitishi mumkin? Bunday kurslar yaratilishining o'zi yuqori malakali jamoani talab qiladi. Zero, uni o'qitish uchun yuqori malakagina emas, balki keng bilimdonlik kerak. Bunday o'qituvchini kim tayyorlab beradi?

Inegratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisida barcha darajada o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Masalaning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga bog'liqligidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limni integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayapti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa

o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta’lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta’limni integratsiyalash fikri xalq ta’limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta’limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba’zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi — boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarning bir necha tomondan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, “qish”, “sovuq”, “bo‘ron”, kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa,

tasviriyl san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa (o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodikasiga ega bo'ladi.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar — integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisohga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Avvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning negizi — turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

1.3. Ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlikni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Ta'lim-tarbiya ishi bugungi kunda o'quvchining har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi majmuaviy jarayon sifatida namoyon bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham mazkur jarayon turli yoshdagi o'quvchilarning aqliy rivolanishi, o'quv-biluv jarayonida o'quvchi shaxsining faoliyati, tahsil olishi va rivojlanishining o'zaro aloqadorligini ta'minlashga yordam bermog'i lozim. Xuddi shu borada integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilarni bilim sifatini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirib borish ko'zda tutiladi.

Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni pedagogik qo'llab-quvvatlash, qobiliyat va iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, muayyan sharoitga moslashuvchanligini qaror toptirishga yo'naltirilgan maxsus

o'quv faoliyatida o'quvchining maqbul rivojlanishini ta'minlash muhimdir. Yangi sharoitda maqbul rivojlanish deganda biz o'quvchining o'ziga xosligini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uning rivojlanishiga boshqa yangicha bir o'quv modeli ta'sir qilishini ko'zda tutadi. Agar o'quvchiga ta'lim berish va rivojlanish muammosi uyg'unlashtirilsa, uning o'ziga xosligini pedagogik-qo'llab-quvvatlash, birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda muayyan o'quv predmeti doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda jamoa bo'lib olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida bo'lgan topshiriqlarning har tomonlama o'ylab ishlab chiqilgan tizimi har bir mavzuning o'zlashtirilishi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday sharoitda ta'lim rivojlanishiga nisbatan ilgarilab boradi [2.21].

O'quvchi odatda mustaqil bajariladigan topshiriqni kichik guruhda o'zaro yordam, hamfikrlik natijasida tez bajaradi. Kichik guruh uchun murakkablik qiladigan mashq va masalalarni o'quvchilar jamoa bo'lib, oson va sifatli bajarishlari mumkin. Savol va topshiriqlarni tabaqalashganlik darajasidan kelib chiqqan holda hamda bir mavzu bo'yicha belglab beriladigan topshiriqlar ularning sifati, har bir o'quvchining o'zligini namoyon qilishini talab qiladi. SHu bilan birga bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi o'z rivojlanishi va bilim sifatining darajasi va individual hatti-harakatlarini ham belgilab oladi. O'quvchi shaxsining o'ziga xos rivojlanish jarayoni quyidagilarda namoyon bo'ladi, ya'ni o'z o'quv predmetini o'zlashtirishga moyilligida.

Ta'lim mazmunini tanlashda har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi, alohida hisobga olinishi kerak. Har bir bolani uzluksiz rivojlanish tamoyili o'quv materiallarini integratsiyalashni, integratsiyalashgan o'quv materiallarini qamrab olgan darsliklar yaratishni taqozo qiladi. Taqdim etiladigan bilimlarning mustahkamligi, o'quvchining umumiy rivojlantirish darajasi dastlab maqsadga asoslanadi. Shuning uchun o'quv materiallari tarkibida turli ranglar, ramzlar, ularning ma'nosi, hajmi bilan tanishtiriladi. Buning

natijasida o'quvchida kuzatuvchanlik faoliyati tarkib topadi. Chunki kuzatuvchanlik shaxs faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida fikrlash faoliyatini rivojlantiradi.

Integratsion darslardagi o'quv materiallari o'quvchini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilmog'i va shu rivojlanish darajasiga muvofiq tarzda bayon qilinmog'i lozim. Har bir o'quvchiga o'zining mustaqil ta'lim olishga imkoniyat berilishi hamda har bir darsda o'quvchilarda muntazam uyg'un ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu ko'nikmalarning bir qismi malakaga olingunga qadar o'quv-biluv jarayonini ko'p tarmoqli jarayonlar bilan kengaytirib borish kerak. Ularning bir qismi mustaqil ishlar, boshqa bir qismi axborot manbalari yordamida hosil bo'ladi. Biz har qanday texnologiyalardan foydalanmaylik, o'quvchilarni mustaqil ishlashlari uchun ham imkoniyat yaratmog'imiz kerak. SHu bilan birga mustaqil ishlash deganda o'quvchining yolg'iz nazoratsiz faoliyatini tushunmasligimiz, balki o'z-o'zini bilimini oshirishni anglatmog'imiz lozim. O'quvchi o'zini qiziqtiradigan, yechishga kuchi yetadigan topshiriqlarni aynan o'zi tanlay olishi talab etiladi. Bunda o'quvchining xohish va bilim sifatini hisobga olish muhimdir.

Har bir o'quvchini uzluksiz rivojlantirish g'oyasi muayyan darsda unda hosil bo'lgan ko'nikmalarni muntazam qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu ko'nikmalarning bir qismi turli axborot manbalari bilan ishlash natijasida hosil bo'lsa, boshqa bir qismi integratsiyalashgan mashg'ulotlarda turli fanlararo berilgan bilimlar, badiiy asarlar kabilar bilan ishlash natijasida vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchilarni rivojlantirishning maqsadi emas, balki vositasi sifatida qaralishiga erishish lozim. DTS da ko'zda tutilgan ta'lim mazmunini o'zlashtirish natijasi mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar sifatida namoyon bo'lishi kerak. DTS da ko'zda tutilgan ta'lim mazmunini barcha o'quvchilar ko'nikma darajasida egallashlari shart [1.17]. SHundan keyingina o'quvchining individual imkoniyati va xoxishini hisobga olgan holda bir qadar murakkabroq o'quv materiallarini taqdim etish, ular o'quv materiallari maqbul o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarida

o'z aksini topmog'i lozim. Bunda o'quvchining bilim sifati va muayyan o'quv predmetini o'rganishga qo'yiladigan talablar ham bir qadar oshiriladi. O'quvchilarning bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash, unda ta'lim mazmuniga singdirilgan barcha tushunchalarni tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy gumanitar sohaga oid bilimlar sifatida taqdim etish muhimdir. Zero, integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarda dunyoning yaxlitligi haqida bir butun tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. SHuning uchun ham bir qator o'quv fanlarini integratsiyalashga bugungi kunda kuchli extiyoj sezilmoqda.

Integrativ mashg'ulotlar o'quvchilarda ishonch hissini qaror toptiradi. O'quv jarayonining muvoffaqqiyati hamda bilimlarning yuqori sifatini ta'minlaydi, darslarda psixologik qulayliklarning o'ziga xos qirralari singdiriladi, o'quvchi faoliyatini samarali tashkil qilishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari taqdim etiladi. SHunday ekan, o'quvchilarni bilim sifatini oshirishda qo'llaniladigan fanlararo integratsiyalash mumkin bo'lgan ayrim mashg'ulot turlari bilan tanishaylik.

Ona tili va o'qish integratsiyasi. Ona tilining maktabda fan sifatida boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi asosan, har xil yo'nalishlarda qarab chiqilishi mumkin. Odatda, ona tili boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki til hamma fanlarni ta'riflash uchun zarur vosita demakdir. Til orqali haqiqatning hamma tomonlari ko'rinadi. Tilni o'rganmasdan turib, aqliy faolit qilish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan o'quvchi bilim olishi shart bo'lgan sharoitlardan biridir. Ona tili maktab ta'limida fan sifatida ko'p qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmunangina emas.

Olimlarning fikricha, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. Ana shunday bog'lanishi lozim bo'lgan fanlardan biri ona tili va o'qishdir. Bularga qo'shimcha tarzda tasviriy san'at, mehnat fanlarini ham uyg'unlashtirish fan doirasini kengaytiradi. Ikkita fanning o'zi emas, balki ko'proq fanlar integratsiyalansa, fanlarning aloqalar rivoji kuchayadi. Bunday darslar o'quvchilarni so'zga, ranglarning turfa olami,

tovushlar sehriga chuqur kirib borishga ko‘maklashadi, savodli, og‘zaki va yozma nutqlari shakllanishiga yordam beradi, uning rivojlanishiga va boyishiga estetik didni oshirish, san‘at asarlarini tushunish va to‘g‘ri baholay olishga, Vatan tabiatini go‘zalligi va boyligini his etishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari o‘rganib chiqiladi. qo‘yilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli bo‘lishi shart. Mujassamlashgan darsda, mos mavzularni topish mushkul, lekin ona tili darsidagi mashqlarni bajarilishini o‘qish darsligidagi mos mavzularga uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi. Bunda o‘quvchi faqat o‘qish yoki yozish bilan shug‘ullanmaydan, balki har ikkisini ham bajarib boradi.

O‘qish va tabiatshunoslik integratsiyasi. O‘qish va tabiatshunoslik integratsiyasi imkoniyatlari juda keng, chunki o‘qish darslari va tabiatshunoslik darslari oldida turgan umumta’lim va tarbiyaviy darslarda o‘quvchilar o‘zining o‘lkasi tabiati bilan tanishadi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, xonaki va yovvoyi hayvonlar, hasharotlar bilan tinishadilar.

O‘qish va tabiat darslaridagi tarbiyaviy maqsad – o‘quvchilarda tabiatga muhabbatni va e‘zozlash his-tuyg‘ularini tarbiyalash, tabiatni estetik birlikda qabul qilishni o‘rgatishdan iborat. Tabiatshunoslik va o‘qish darslarida o‘rgatish obyekti bu tabiatning biror hodisasidir, lekin ularning o‘rganish usullari boshqacha. O‘qish darsi tabiat darsiga nisbatan emotsional ranglarda qabul qilinishini shakllantiradi, o‘quvchilarga o‘zining tabiatga bo‘lgan estetik munosabatini til vositasida ifodalashga o‘rgatadi. Tabiat darslarida esa, ko‘z bilan kuzatadi, qo‘l bilan ushlab ko‘radi.

Fanlararo umumiy mavzular mavjudligi aynan shu usullarni birlashtirib, o‘quvchilarga kengroq holda yetkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Agar ikki fanni mujassamlashtirilsa, darsni shunday rejalashtirish kerakki, boshqa fanlardan olingan ma’lumotlar bir-biriga qo‘shimcha bo‘lib, o‘sha ma’lumotlar chuqurlashtirilsin. Shunday holdagina bu mujassam dars boshqa darslardan farq qiladi. Bunda biz tabiatshunoslik orqali ongdan his-tuyg‘uga yuramiz, o‘qishni

o'rganganda his-tuyg'ularga ta'sir qilib, e'tiqodni shakllantiramiz. Masalan, tabiat darsida o'quvchilar qushlar bilan tanishadilar ularning ko'rinishlarini, yovvoyi yoki xonaki ekanligini ajratadilar, ular nima bilan oziqlanishini o'rganadilar va shu kabilar bilan tanishadilar. O'qish darsida bu qushlar to'g'risida badiiy jihatdan tanishadilar, hikoya, ertaklar orqali o'rganadilar. Integratsiyalashgan darsda tabiatshunoslikka oid ilmiy bilimlar badiiy asarlardagi his-tuyg'ular ta'siri orqali tabiatga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Ona tili va tabiatshunoslik integratsiyasi. Ona tili va tabiatshunoslik fanlari uyg'unlashtirilgan darslarda fanlar va tabiat hodisalarini ta'sirchan qabul qilish doimo bolalarning nutqini o'stirish ishlariga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga o'simliklar, hayvonlar, odam tana a'zolari to'g'ri aytishga o'rgatadi, kuzatish natijalarini aytib borishni taklif etadi. Shunday qilib, bolalar o'rgangan so'zlar, ularning tushunchalarida tasavvurlar, aniq hodisalarga bog'lanadi, hayotiy mazmunga to'ladi. Bu esa bolalarni tabiatga bag'ishlangan hikoyalar, maqollar, she'rlarni ongli ravishda o'qish, yozishga tayyorlaydi, ko'rganlari haqidagi matnni katta qiziqish bilan o'qishadi yoki o'qituvchi bilan suhbatlashganlarini yaxshiroq tushunadilar.

Ona tili darslarida yozilgan mashqlar tarkibining ko'p qismi tabiat voqea-hodisalariga bog'liq. SHu bois ham tabiatni e'zozlash to'g'risida va boshqalar haqida kichkina suhbatlar o'tkazish ham foydadan holi emas.

Tabiat darslarida esa, o'tiladigan mavzularni mustahkamlash yoki "Oltin kuz", "Zumrad bahor", "Yoz – o'tmoqda soz" kabi mavzulardan foydalanib, insho yozdirish mumkin. Ona tili darsida "Gap" mavzusini o'tganda tabiatga oid gaplardan tuzish kerakligi aytilishi ham o'quvchilarni ikki fanni o'zlashtirishlariga yordam beradi. Masalan, "CHinor daraxti" haqida gap tuzish. "Chinor ming yillar qad ko'tarib turuvchi ulkan daraxtdir".

Ushbu gap orqali o'quvchilarga chinorga og'zaki ta'rif berishlari yoki kengaytirib yozishlari, uning barg shaklini, rangini, xususiyatlarini aniqlash uchun imkon berilishi mumkin.

Shundan keyin o'quvchilar chinor daraxti to'g'risida darak, so'roq va undov gaplar tuzadilar. Tuzilgan gaplar sinf taxtasiga yoki daftarga yoziladi va tahlil qilinadi. Bunday hollarda dars qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tadi, esda qolarli bo'ladi. Ish yakunida chinor daraxti to'g'risida, uning ijobiy xususiyatlari, go'zalligi, daraxtlarni insonlar e'zozlashi lozimligi haqida suhbatlashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili darslarida nutqni rivojlantirish asosiy hisoblanishini unutmagan holda matn mavzusini o'rganganda insholardan foydalanish mumkin. Inshoni tanlashda esa, tabiatga xos bo'lgan, bolalarda tabiatga muhabbatini tarbiyalovchi mavzularni tanlash kerak bo'ladi. Bunday insholar 5-20 daqiqagacha, xajmi 5-15 gapdan iborat tarzda haftada bir marotaba o'tkazish mumkin. Insho bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, ularga zamonning axloqiy talablarini tushunishga yordam beradi. O'zlarining hikoyalarida bolalar qisqa sitatalar kiritishni, yorqin so'z va iboralar yaratishni, insholarga rasmlar chizishni, bezashni o'rganadilar. Bundan maqsad tabiat to'g'risida badiiy emotsional aniq rasmlar yaratishdir. Shu bilan birga rasm asosida hikoya yoki ertak yozishga o'rgatiladi. Bunday hikoya yoki ertaklarda, albatta, darak, so'roq, undov va buyruq gaplar ishtirok etadi.

Demak, integratsiyalashgan darslarda quyidagicha uslublardan foydalanish mumkin:

- evristik suhbatlar;
- nutqni rivojlantirishga oid ijodiy ishlar, ularni yozishda tabiatshunoslik materialidan foydalanish;
- og'zaki rasm chizish (tasvirlash, manzarali tasvirlangan joylarni yozma ravishda daftarga tushirish);
- tabiatshunoslik mavzusida diktant, insholar yozdirish.

O'qituvchilar integratsiyalashgan darsni har bir darsda emas, balki uning ma'lum bir bosqichda, ya'ni haftada 2-3 marotaba foydalanish mumkin. Masalan, lug'at bilan ishlash paytida tabiatshunoslikdan olingan ma'lumotlardan keng foydalanish imkoni bo'ladi. Har qanday so'zga lingvistik va tabiatshunoslik

nuqtai nazaridan tushuncha berish mumkin. Umuman olganda ona tili va tabiatshunoslik darslarini integratsiyalashda ularning dars turiga mavzularning o‘zaro uyg‘unligiga e‘tibor berishi kerak bo‘ladi.

O‘qish, yozuv, matematika va badiiy mehnat fanlarining mujassamlashishi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalash jarayoni aynan mos mavzular yuzasidan emas, balki bir-biriga moslashtirilgan topshiriqlar orqali ham uyushtirilishi mumkin. Bunday hollarda biz nafaqat ikkita yoki uchta fanlarning uyg‘unlashishi, balki 4 ta fanlarni ham o‘zaro bog‘liq holda olib borish mumkin.

To‘g‘ri, boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish murakkab jarayon. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlashning turli yo‘llarini qidirib topishga to‘g‘ri keladi. SHundagina darslar samarali o‘tishi mumkin. Aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda 4 ta fan, ya‘ni o‘qish, yozuv, matematika va badiiy mehnat darslarini uyg‘unlashtirish qiyin. CHunki bunday hollarda tanlangan mavzu har biriga tegishli bo‘lishi kerak. SHu bois ham mujassam darsga e‘tibor berilishi muhimdir. Masalan, o‘qish darsligida (2-sinf) kitob haqida ma‘lumot berilgan bo‘lsa, keyingi fanlar topshirig‘ini ham aynan shunga moslash lozim. Bunda kitob haqida faqat dasrlikdagi ma‘lumot bilan chegaralanmay, “Bolalar entsiklopediyasi”dan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yozuvda ham aynan kitob haqida yozishadi, matematikada ham kitobga oid masala yechishadi, badiiy mehnatda kitob yasashni o‘rganadilar. Bu vazifalarni bajarishda topshiriqlarni navbatma-navbat bajarilsa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi, shu bilan birga vaqt yetmaydi. Shu bois o‘quvchilarni 4 guruhga bo‘lib, ularga sinfdan 4 ta ijod markazi tayyorlanadi. Har bir guruh bir vaqtda 4 xil topshiriq bilan band bo‘ladi. 1-guruh “o‘qish” markazda kitob haqida ma‘lumot o‘qiydilar. Uni dastlab o‘qituvchi tushuntirib beradi, unga doir rasmlardan foydalanadi.

2-guruh kitob haqida “Yozuv” markazida ishlaydilar. Ular kitob haqida bilganlarini sinf taxtasiga yoki daftarga guruhlararo kelishib yozadilar.

3-guruh “Matematika” markazida kitobga oid masalani birgalikda bajaradilar.

4-guruh “Ijod” markazida kitob yasaydilar.

Har bir guruh topshiriqni 10 daqiqadan soʻng bajarib, guruhlar topshiriqlarni almashtiradilar. SHu tariqa 4 tala guruh ham topshiriqlarni bajaradilar, topshiriqlar orada oʻqituvchi tomonidan baholab boriladi. Bunday darslarni ham haftada bir marotaba oʻtkazish maqsadga muvofiq boʻladi.

Ona tili va musiqa fanlari integratsiyasi. Bir qarashda bu fanlar birligi murakkab tuyuladi, yaʼni integratsiyalash imkoni cheklangan. SHuning uchun ham bu ikki fanni qanday integratsiyalash masalasiga eʼtiborni qaratmoqchimiz. Ona tili darsida oʻquvchilar eʼtibori nutqni toʻla oʻzlashtirilishiga qaratiladi. Musiqa darsida esa oʻrganiladigan material – bu musiqa va qoʻshiqlar. Agar ikki fan uygʻunlashsa, u holda ikki kuch, yaʼni nutq va musiqa birlashadi. Ona tili va musiqa darslarida biz tovush tiniq aytilishiga koʻproq eʼtiborni qaratamiz. CHunki nutq va qoʻshiqning oʻzro aloqasi chuqurroq va bu aloqa asrlarga borib taqaladi. Olimlarimizning taʼkidlashicha, nutq va kuy bir kuch boʻlgan va oʻsha davrlarda ularning tarona negizi tabaqalashmagan. Shu bois ham ona tili hamda musiqani integratsiyalash mumkin boʻladi.

Umumiy pedagogikadan maʼlumki hamma pedagoglar uchun asosiy va umumiy maqsad bu – bolada qobiliyat va fikrlashni koʻp tomonlama rivojlantirishdir. Shu bilan birga u fan asoslarini oʻrganayotganda doimo bilim, malaka, koʻnikmalarni takomillashtirishga xohishni rivojlantirish kerak. Lekin har bir pedagog bolaning umumiy rivojlanishidan tashqari uning oʻziga xos qobiliyatini rivojlanishiga ham gʻamxoʻrlik qilish lozim.

Oʻtmish uslubchilari va hozirgi zamon tadqiqotchilari ruhshunoslik va uslubiy sohada oʻquvchilarning diqqatlarini umuman lingvistik va musiqiy qobiliyatlarini oʻrgandilar hamda barcha qobiliyatlardan nutq va musiqiy qobiliyatni ajratib olish mumkin deb hisoblaydilar. Aynan bu qobiliyat til va qoʻshiqni oʻzlashtirish asosidir. Ona tili va musiqa darslarini integatsiyalashda samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, urgʻuli soʻzlarni oʻrgatishda musiqadan foydalanish mumkin. Bu mavzuni sheʼrlar yoki qoʻshiqlar yordamida oʻrgatiladi. Chunki kutilgan qofiya oldindan oʻquvchini keyingi kelishik

qo‘shimchasiga tayyorlaydi. qo‘shiqdan ba’zi parchalarni yodlab, ular odatda ona tili darsi boshlanishida yoki dam olish daqiqalarida foydalanishda, o‘quvchilar juda zarur bo‘lgan so‘zlarni iboralarni, but-butun fikrlarni talaffuzini shakllantiradi.

Ona tili darslarida musiqa beozor muhitni yaratadi. O‘quvchilarga maishiy hayot, tabiat muhitini chuqurroq tushunishiga imkon beradi. Bunday integratsiyalashgan darsda musiqaning tarbiyaviy maqsadi, ta’lim muhimligidan ham qolishmaydi. Agar o‘quvchi qandaydir qo‘shiq eshitsa, o‘qituvchi muallif haqida qisqacha ma’lumot berib, asarning yaratilish tarixini yozdirib o‘tadi. Bu esa, o‘quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi. O‘qituvchi o‘z navbatida bunday integratsiyalashgan darsga puxta tayyorgarlik qilishi talab etiladi. Darsni qiziqarli bo‘lishini ta’minlash uchun ona tili darsligidagi mashqlar bilan cheklanmasdan qo‘shiq so‘zlarini yozdirish kerak bo‘lsa, uni eshittirish uchun kasseta va magnitafonlarni tayyorlash, bastakorlar va qo‘shiq haqida ma’lumotlarni yig‘ish lozim bo‘ladi.

Ona tili, tasviriy san’at va mehnat ta’limi bilan integratsiyalash.

Bu fanlar integratsiyasi o‘quvchilar aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda fikrlashlarini faollashtirishda tevarak-atrofdagi tasavvur qilish, shu bilan birga nutq va emotsional holatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ona tili va tasviriy san’at mujassamlashgan darslarda o‘rganish maqsadi tasviriy san’at na’munalari bo‘ladi. materialni bayon qilishda o‘qituvchi bolalarga rassom tarjimai holi bilan tanishtiradi, rasm yaratish jarayonini ta’riflab beradi. Shu bilan birga asar muhokama va tahlil qilinadi. Rasm bilan tanishish natijasida bolalar rasmda tasvirlangan holat bilan hayotda kuzatgan holatlarini solishtirishni, bu esa, o‘z navbatida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Rasm tasvirlari ona tili darslarida yorqin taassurot manbai bo‘ladi, bolalarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. O‘quvchilarni ongli ravishda savodli bo‘lishlariga asos bo‘ladi. Chunki insonning his-tuyg‘usi san’atni qabul qiluvchi fikrlash va nutq o‘zaro bog‘liqdir. Rasm bilan ishlash o‘quvchilarning nutq faoliyatini shakllantiradi va ularning so‘z zahiralarini boyitadi. Ona tili va tasviriy san’at

fanlarini o‘zaro bog‘lanishini amalga oshirishda o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatlari ham e‘tiborga olinadi. Masalan, darsda yozma ravishda mashq bajarishdan oldin o‘qituvchi bolalarga shunday topshiriq berishi mumkin. Ya’ni o‘quvchilar daftarlariga ertalab uyidan chiqib, maktabga kelguncha bo‘lgan yo‘lni chizishlari kerak bo‘ladi. Bunda barcha burilishlar, aylanib o‘tishlar yo‘lning qayrilishlarini unutmaslik lozim. Bu topshiriq o‘quvchilarni xotirasini faollashtiradi, chunki ular qiziqish bilan topshiriqni bajaradilar. Eng asosiysi, o‘quvchilar ushbu topshiriq orqali qo‘l mushaklarini yozuv jarayoniga tayyorlaydi. Bunday topshiriqni turli variantlarini o‘ylab topish mumkin. Bundan tashqari matnga oid rasm chizdirish orqali bolalar adabiy nutqining ma’nodorligi oshadi.

Ona tili va mehnat integratsiyasi yanada qiziqarli bo‘ladi. Bunda ham huddi tasviriy san’at integratsiyasi kabi, dars boshlanishida ayrim elementlarni kiritish mumkin. O‘quvchilar plastilindan shakl yasashlari, rangli qog‘ozlardan har xil shakllarni qo‘yib olishlari, yirtish usuli bilan qog‘ozdan yassi shakldagi buyumlarni yasashda foydalanishadi. Ona tili, tasviriy san’at, mehnat darslari uyg‘unlashgan mashg‘ulotlar qiziqarli, jonli, shovqinsiz bo‘ladi. Bolalar har bir darsga qiziqish bilan qaraydilar, qog‘ozlarni qirqqanlarida qo‘l mushaklari ishlaydi, rasm chizganida xayol qilish, fantaziya rivojlanadi, solishtirish ishlarida og‘zaki taqqoslash ko‘nikmasi shakllanadi. Eng muhimi bu darsda faqatgina yozma ravishda bilmasdan, balki o‘zlari o‘sha buyumlarni yasab, o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

O‘qish, tasviriy san’at va mehnat integratsiyasi. O‘qish darsi fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng qulay darajasidir. Chunki har bir fan topshirig‘ini bajarishda dastlab o‘qib chiqiladi, o‘sha mavzu yuzasidan og‘zaki hikoya qilinadi. Demak, tasviriy san’at va mehnat fanlarini o‘qish fani bilan integratsiyalansa, uchta fan yuzasidan umumiy maqsadga erishilgan bo‘ladi. ya’ni o‘qish ko‘nikmasiga tushunish, bilish, tahlil, sintez, baholash kabi maqsadlar, tasavvur qilish, badiiy idrok etish kabi ko‘plab masalalar amalga oshiriladi. O‘qish darsligidagi har bir mavzuni to‘la o‘zlashtirilishiga erishilgan bo‘ladi.

O‘qish darsliklarida berilgan turli she’r, hikoya, ertak, masallarni oddiygina o‘qib chiqqandan ko‘ra, ularga oid rasmlarni ko‘rishlari yoki o‘sha asarlarga oid o‘z tasavvurlarida biror rasmni tasvirlashlari, bolalarni to‘la o‘zlashtirishlariga imkon berilgan bo‘ladi. Chunki: “Yuz bora eshitgandan, bir bora ko‘rgan avfzal”, - degan naql bejiz aytilmagan. Yoki o‘quvchilar o‘sha asarlar to‘g‘risida biror buyumni yasashlari (qog‘oz, karton, plastilin ...) ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan, 3-sinf o‘qish darsligidagi “Bayroq nima?” matnini o‘quvchilar o‘rganganlarida, ushbu matnni o‘qiydilar, bayroq rasmini tomosha qilishlari mumkin. Lekin, nima uchun bayroq rasmini chizishlari yoki rangli qog‘ozlar, matolardan o‘sha darsning o‘zida foydalanib bo‘lmaydi? Nima uchun buni faqat tasviriyy san’at yoki mehnat darsida amalga oshirilishi kerak?

O‘quvchilar, bayroq to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak ekan, uni uchta darsda emas, balki bir darsni o‘zida ham amalga oshirish mumkin. Xuddi shu tariqa o‘quvchilarni vaqtini tejash, ortiqcha zo‘riqishlardan xalos etish mumkin bo‘ladi. Shuni aytish joizki, integratsiyalashgan darslarda ko‘proq biz tasviriyy san’atdan foydalansak, bolaga bilimni yetkazishimiz qulay bo‘ladi.

K.D.Ushinskiy shunday degan edi: “Bolalar asarni tushunishlari uchun uni sezishlari kerak. She’riy asarlarda juda ko‘p narsa faqat his-tuyg‘u orqali tushuntiriladi, uni faqat aqliy bilim bilan tushuntirish mumkin emas” .

Albatta, maktabgacha tarbiya yoshida bo‘lgan bolalarning kitobga ilk bor qiziqishi ko‘pincha rasm orqali vujudga keladi. Bu “sirli kalitcha” kichkina kitobxonlar oldida jonli va ko‘p qirrali badiiy adabiyot dunyosiga eshik ochib beradi. O‘sha davrda rasm bolaning xayolini uyg‘otadi. Uning hayot va ertak olami to‘g‘risidagi tasavvurini shakllantiradi, chiziq va rang san’atiga qiziqishini uyg‘otadi. Shuning uchun ham tasviriyy san’at fanini barcha fanlarga uyg‘unlashtirish – yaxshi samara beradi. Sir emaski, hozirgi paytda tasviriyy san’at faniga maktablarda e’tibor kam, lekin aynan shu fan orqali o‘quvchilarda estetik did, axloqiy qoidalar madaniyat va boshqa nozik hislatlarni shakllantirish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda tasviriy san'at darsining integratsiyalashuvi san'atdagi ajoyib narsalarga axloqiy-estetik g'amxo'rlikni shakllantiradi. Bu esa, bolaning ongida uning shaxsiy dunyosi, fikrlar va his-tuyg'ular olamining san'at bilan aloqasini mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida tasviriy san'atni uyg'unlashishi bolalarning adabiy asarlarni badiiy qabul qilishlariga yordam beradi. Chunki san'atning ko'p qirrali ta'siri san'at asarlarining qabul qilinishi jarayonida o'tadi. Lekin bu ta'sirning samarasi to'g'ri badiiy qabul qilish madaniyatiga bevosita bog'liq. Ba'zida inson, agarda u g'aroyib tabiiy hodisaga duch kelib, ya'ni dunyo birdaniga, bir zumga ajoyib jamolini ko'rsatganidan beixtiyor: "Mana buni rassom ko'rganda bormi! Hech ishongisi kelmaydi" - deb yuboradi. Aslida, biz dunyoga hayrat bilan qarashga vaqt topolmaymiz. Aynan san'at orqali biz hayot go'zalligini anglashimiz, uni beg'araz chehrasini ko'rish baxtiga muyassar bo'lamiz. Shu ma'noda bolaga tabiat doim bir xil emasligini, u boy, rang-barang va uni badiiy qabul qilishda ana u ranglaridan foydalanishimiz kerakligi uqtiriladi.

Badiiy qabul qilish asosan ruhiy jarayon bo'lib, bu jarayon bevosita san'at asari ta'sirida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinfda o'qish darslarida turli asarlarga oid rasmlar chizdirish mumkin. Bu bilan o'quvchi asosan badiiy qabul qiladi. Badiiy qabul qilish faollikni talab qiladi va u bir necha bosqichda amalga oshadi.

1. Asarni o'qishdan oldin o'quvchi badiiy qabul qilishga tayyorlanadi.
2. Asarni o'qish va u bilan aloqaga kirishish.
3. Asarni tasavvurida chiqishga o'rganish.
4. O'qigan, chizgan asarlarini keyin ham xotirada saqlanishiga erishish.

Bu bosqichlar asarni ruhiy qabul qilishga tayyorlaydi. O'quvchi oddiy o'qigandan ko'ra, chizgan asari haqida ko'proq tasavvurga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchi o'qiyotgan asarini ikki bosqich orqali to'la tushunadi:

- matnni ifodali o'qib uni xayolan tasavvur qilish orqali.
- xayolidagi tasavvurini ranglar orqali tasvirlash orqali.

Demak, har ikkisi orqali bolaning faolligi ortadi. Hozirgi paytda tasviriy san'at integratsiyasi to'la shakllanmagan. Lekin boshlang'ich sinf tasviriy san'at

darslarining maqsad va vazifalari, ularga qo'yiladigan talablar ham zamon talablariga ko'ra o'zgarib, yangilanib bormoqda. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida borliqni va san'atni idrok etish, asosan, belgilangan mavzu asosida suhbat o'tkazish va tasviriy san'at asarlarini namoyish etish bilan bog'liqdir. Suhbat jarayonida o'quvchilarning tabiatshunoslik, mehnat ta'limi, ona tili, o'qish, matematika kabi darslarda o'lashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga bevosia tayaniladi.

O'quvchilarga bahor, yoz, kuz, qish fasllari mavzusi asosida rasm chizdirilganda, albatta, ular haqida o'quvchilarga kerakli ma'lumotlar beriladi. Ushbu mavzular tabiatshunoslik yoki o'qish darslarida o'tkaziladigan o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushunchalar beriladi. Yagona mavzu asosida dars o'tilgach, turli predmetlardan o'quvchilarga o'zaro hamohang bilim berilishi tabiiydir. Shunday ekan, o'z-o'zidan mazkur mavzularni yaxlit asosda uyg'unlashtirish kerakmi? – degan savol tug'iladi.

Tasviriy san'at darslarni boshqa fanlarga uyg'unlashtirish qulayroq. Chunki ushbu darsdagi mashg'ulot turlari, uyg'unlashgan darslarda bajarilishi lozim bo'lgan mashq turlaridan iborat. Sababi, tasviriy san'at darslarida, mavzu asosida rasm ishlash jarayoni ikki turga bo'linadi:

- mavzu asosida rasm ishlash;
- adabiy asarlarga rasm ishlash.

Mavzu asosida rasm ishlashda yil fasllari, bayramlar yoki tadbirlar nazarda tutilsa, adabiy asarga oid rasm ishlashda esa, ertak, hikoya she'r kabilar asosida suratlar chiziladi. Shunday ekan o'qish, tabiatshunoslik darslaridagi mavzular aynan shu mavzularni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, "Bahor", "Kuz", "Qish" kabi mavzular o'qish tabiat, tasviriy san'at o'quv predmetlari dasturidan o'rin olganligi uchun ularni o'zaro integratsiyalash mumkin. Bu bilan o'quvchilar har bir darsni to'la o'zlashtirishga erishadilar. Boshlang'ich sinflarda har bir o'quv predmetini integratsiyalash natijasida, o'quvchilarning nutqini o'stirishga erishish mumkin. Hattoki, tasviriy san'at darslarini uyg'unlashishi ham aynan, nutq o'stirishga qaratilgan.

Tasviriyy san'at va ona tili darslarida fanlararo aloqalar samarali bo'lishi mumkin. Ular o'quvchilarda nutq va tasviriyy san'at qobiliyatini rivojlantiruvchi integratsiyani ta'minlaydi.

Har qanday bolaning psixik ruhiyatida ijodiy shaxsga xos muhim xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ammo bolalarning ijodiy faoliyati bilan kattalar ijodiy madaniyati namunalariga teng nazar bilan qaramaslik lozim, biroq ijodiy imkoniyatlarni ham e'tiborga olish muhimdir. Shuni aytish joizki, asosan, ko'pchilik o'quvchilarda o'quv materialini egallashdagi qiyinchilik tafakkurning xususiyatlarini yetarli darajada shakllantirilmaganligi bilan tushintirish mumkin. Masalan, tahlil qila olmaslik, taqqoslash, umumiydan asosiysini ajrata olmaslik, faollikning yetishmasligi, uyatchanlik, tafakkurning egiluvchanligi va boshqalar. Aynan integratsiyalashgan mashg'ulotlardagi mavzularga oid didaktik o'yinlar o'quvchilarni fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'yinlarni dars vaqtida charchoqni tushirish, diqqatni jamlashda qo'llash mumkin. Ular o'qish va dam olishni to'g'ri tashkil qilishga, mashg'ulotlarda o'quvchilarning emotsional qobiliyatini ko'tarishga yordam beradi. Guruhiiy o'yinlar esa bolalarda o'zaro tushunish, hurmat, bir-biriga ishonchni rivojlantirishga qaratilgan.

Idrok jarayonini rivojlantiruvchi o'yinlar.

1. Rasmlar tahlili. Oddiydan murakkablashtirib, bolalarga xilma-xil rasmlar ko'rsatiladi (2-3 daqiqa), keyin rasmlar olib qo'yiladi bolalarga rasmlarda nima ko'rganliklarini hikoya qilib berish so'raladi. Bu o'yin idroknigina emas, ko'rgazmali xotira, nutqni rivojlantirish, kuzatuvchanlikni oshirish omili ham bo'lishi mumkin. Bu o'yindan asosan o'qish, ona tili, tabiat darslarini uyg'unlashtirganda foydalanish mumkin sanaladi. Tanlangan rasmlar o'tilayotgan mavzuga oid bo'lishi lozim.

2. Tovush sonini aniqlash o'yini.

O'qituvchi qalam bilan bir necha marta stolni taqillatadi. Bola necha marta urilganligini sanab, aytib berishi kerak.

3. Sehrli tomchi. Bir varoq qog'ozga bir tomchi rang tomgizilib, qog'oz buklanadi. O'quvchilar tomchini nima o'xshashligini aytib berishlari zarur. Eng ko'p predmet nomini aytgan bola g'olib hisoblanadi.

4. Rasmni davom ettir. Har bir o'quvchida qog'oz va qalam bo'lishi shart. Birinchi o'quvchi qandaydir rasmni chizishni boshlaydi. Keyingi o'quvchi boshlangan rasmni nima ekanligini aytib, uni davom ettiradi. O'yin mana shu tarzda to ishtirokchilar chizilayotgan rasmga biror bir qo'shimcha kirita olmaguncha davom ettiriladi. Rasmga so'ngi nuqta qo'ygan ishtirokchi g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni sinf taxtasida yoki guruh-guruh qilib aylana holda o'tirgizib qo'yilgan o'quvchilar o'rtasida o'tkazish mumkin.

Demak, bunday psixologik o'yinlar integratsiyalashgan darsning mavzulariga moslangan holda o'quvchilarni fikrlarini bir joyga jamlash, dam oldirish uchun qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

Ma'lumki o'qish va odobnoma darslari mazmuni va vazifasi jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ushbu fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari juda keng va qulay. O'qish darslari o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish bilan birga bir qator tarbiyaviy vazifalarni amallga oshiradi. Odobnoma darslarining asosiy maqsadi esa o'quvchilarni har tomonlama, milliy an'analarimizga xos tarzda tarbiyalashdir.

Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad - o'quvchilarga berilayotgan bilimlarni takrorlanishini oldini olish, bir xillikka barham berish va vaqtni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko'rib o'tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko'p vaqtni tejagan holda o'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo'ladi.

O‘qish va odobnoma fanlarini integratsiyalash haqida bugungi kunda juda ko‘p bahs-munozaralarni ko‘rishimiz mumkin. Ayrim mutaxassislar fikriga ko‘ra, har ikki fanni birlashtirgan holda yagona integrativ kurs tashkil qilish bo‘yicha takliflar ham bo‘lgan. Masalan: NamDU 2006-yil boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida magistranti Egamberdiyeva Go‘zalning “Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim jarayonini integratsiyalashtirishning pedagogik texnologiyasi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashuv masalalari bilan birgalikda o‘qish, odobnoma hamda tasviriy san‘at fanlarini integratsiyalanib alohida “Odobli o‘qish san‘ati” chegara fani hosil qilingan. Bunda fanlardagi bir-biriga yaqin mavzular qisqartirilib tasviriy san‘at bilan birgalikda yangi fan hosil qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu magistrlik dissertatsiyasidagi chegara fan, albatta, har uchala fanning o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda tuzilgan. Lekin bu yerda birinchidan, chegara fanning nomi, fikrimizcha, boshqacharoq bo‘lishi lozim. Ya‘ni agar biz uning nomiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Odobli o‘qish san‘ati”, albatta, chegara fan nomi integratsiyaga kirishayotgan fanlar nomidan kelib chiqadi, lekin bu yerda fan nomi notog‘ri tanlangan. Chunki o‘qishning biz bilamizki, turli sifatlari bor, lekin ular ichida odobli o‘qish deb nomlangan sifati ham, umuman, odobli o‘qish degan tushunchani o‘zi ham mavjud emas. Ushbu ikki fandan hosil bo‘lgan chegara fanni “Jamiyat va tabiat”, “O‘qish va tarbiya sabog‘i” kabi nomlash bizningcha maqsadga muvofiqdir. Ushbu ikki fanni integratsiyash uchun fan dasturlarini ko‘rib chiqib, ulardagi mazmunan bir-biriga yaqin mavzularni integratsiyalaymiz.

I BOB BO'YICHA XULOSA

O'rganilgan ilmiy, pedagogik metodik manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich ta'lim tizimiga integratsion yondashuv muammosi o'ta dolzarb muammo bo'lib, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda ko'plab metodik manbalarda bir talay darslar ishlanmasi e'lon qilinib, unda turli fanlarga, turli mavzularga murojaat qilinmoqda.

Ta'limda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning asosiy muammolaridan biri, bu integrativ darslarning tuzilishini ko'rsatishga qaratilgan dars ishlanmalari, metodik yo'riqnoalarning mavjud emasligidir.

Ta'limda integratsiyani amalga oshirishga doir tegishli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir.

Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o'quvchilarga berilayotgan bilimlarni takrorlanishini oldini olish, bir xillikka barham berish va vaqtni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko'rib o'tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko'p vaqtni tejagan holda o'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

II BOB. ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK O‘RNATISHNING METODIK ASOSLARI

2.1 Ona tili va o‘qish darslarida fanlararo aloqadorlik o‘rnatish metodi va vositalari.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun, avvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalarida ko‘rinadi. Savod o‘rgatish darslarida (o‘qish va yozishga o‘rgatish) integratsiyalangan darslar. Bunday integratsiyalangan ta’lim – bu sinfdan tashqari o‘qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- a) kitob o‘qish asbobi sifatida o‘qish darslarida olgan o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- b) matn ustida ishlash;
- d) suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

O‘qish fanlarida integratsiyalangan darslarga quyidagi fanlarning birikishini ko‘rsatish mumkin: o‘qish-ona tili, o‘qish-matematika, o‘qish-ingliz tili, o‘qish-odobnoma, o‘qish-rus tili, o‘qish-tabiathunoslik, o‘qish-tasviriy san’at, o‘qish-musika.

Ta’limni tabaqalashtirishni rad etmaydigan, uni to‘ldiradigan integratsiyani ta’lim tizimiga kiritish, jamiyatga yaxlit dunyoqarashga, o‘zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo‘lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishda an’anaviy predmetlarga bo‘lib o‘qitishga nisbatan ko‘proq yordam beradi.

O‘quvchilar nutqini “Tabiatshunoslik” hamda “Ona tili” fanidan atamalar bilan boyitishda berilgan umumiy ma’noli atamalarning xususiy ma’nolarini topish, ularni esa o‘z navbatida, muayyan uyadosh so‘zlarga ajratish, “Tabiatshunoslik” sohasiga oid atamalarning ma’nosini sharhlash va izohlash, bunday atamalarning kichik izohli lug‘atini tuzish, berilgan atamalar uyasini davom ettirish, atamalarni alifbo tartibida joylashtirish, har ikki fanga oid

atamalarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash singari ijodiy-amaliy ishlar nutqni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, berilgan maqollardan “Tabiatshunoslik” faniga oid atamalarni topish, ularni izohlash, ular asosida matnlar yaratish, bunday matnlarni dialoglarga aylantirish kabi ish turlari o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga imkon yaratadi.

Subyekt fikr bayon etishi uchun uning o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga doir mashqlar bajartiriladi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning nutqiy malakasini oshiradi, berilgan topshiriqqa ijodiy yondashtiradi, ularni fikrlashga undaydi.

O‘quvchilarning nutqiy ta’sirchan, mantiqiy jihatdan asosli, yoqimli bo‘lishi uchun ularning nutq ijodlariga to‘liq erkinlik berish taqozo etiladi. Buning uchun esa darsda xalq maqollaridan foydalanish ham samarali usul hisoblanadi. Chunki o‘zbek xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, ma’naviyatimizning go‘zal ifodasidir. “Tabiatshunoslik” hamda ona tili darslarini uyg‘unlashtirishda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq, bo‘lib, bundan darsning mustahkamlash bosqichida foydalanish o‘rinlidir. Maqoldan foydalanishning boisi shuki, u xalq donishmandligining lo‘nda va ixcham ifodasidir. Ular o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, qissadan hissa chiqarishga, o‘z maqsadini bayon etishga undaydi. Maqollar o‘zbek tilining eng go‘zal, boy, nozik badiiy xususiyatlarini bilib olishda va so‘z boyligini oshirishda katta ahamiyati ega. O‘qituvchi o‘quvchilardan maqolning mazmunini sharhlatib qolmasdan, balki, maqolaga mos hikoyat, rivoyatlar aytirishlari mumkin yoki maqolga mos rasm chizishlari, shuningdek, Tabiatshunoslikdan o‘tilgan qaysi mavzuga shu maqol mos tushishi ham so‘ralsa, fanlararo integratsiya metodi ham amalga oshadi. Maqol kishi esida qoluvchi, o‘ylashga, fikr mulohaza yuritishga undaydigan janrdir. Shuning uchun ham “Tabiatshunoslik” hamda ona tili darslarida undan foydalanish, uni bahs-munozaraga aylantirish, ma’nosini izohlatish kabilar foydadan holi emas. Bunda sinf o‘quvchilariga maqollar bo‘lib beriladi. O‘qituvchi darsning bu qismiga “Maqol – chaqilmagan yong‘oq” deb sarlavha qo‘yadi. O‘quvchilarga o‘ziga tushgan maqollarni ma’nosini aytib berishlari talab

qilinadi. Berilgan maqollarning tarkibida, albatta, o‘simliklarga oid atamalar mavjud bo‘lib, avvalo, o‘sha atamaning ma‘nosi izohlanadi, so‘ngra maqol sharhlanadi. Masalan,

Tol eksang, tagini ho‘l qil,

Uzum eksang, tagini cho‘l qil.

Maqolni quyidagicha izohlash mumkin:

Ma‘lumki tol suvga chanqoq o‘simlik bo‘lib, u suv bo‘ylarida yaxshi rivojlanadi. Uzum daraxti esa har doim ham suv talab qilavermaydi. Uni ba‘zi-ba‘zida sug‘orib turish maqsadga muvofiqdir. Ho‘l-namlik, cho‘l-quruqlik. Daraxtlarning asosiy farqlanadigan xususiyati ho‘l va cho‘l ekanligi bo‘lib, ular antonimlik xususiyatiga egadir. Har ikki so‘z bir tovush bilan (h - ch) farqlanadi. Ma‘lumki, atrofimizni o‘rab olgan tabiat tirik va o‘lik jismlardan iborat. Ona tili ta‘limi jarayonida tovushlarni o‘rganishda ham “Tabiatshunoslik” darsi bilan bog‘lash mumkin. Ya‘ni talaffuzda bir-biriga o‘xshash so‘zlarni farqlashda, ularga ma‘nodoshlar, uyadoshlar, zid ma‘noli so‘zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish samarali usullardan sanaladi. Masalan, daraxt so‘zining ma‘nodoshlari: daraxt, nihol, ko‘chat...uyadoshlari: terak, tol, archa, qayrag‘och...

O‘quvchilarga talaffuzimizdagi bir-biriga o‘xshash so‘zlarni farqlashda (“Tabiatshunoslik” faniga oid), ularga ma‘nodosh, uyadosh, zid ma‘noli so‘zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berib, ushbu topshiriqlarni bajartirsak, bu o‘quvchilarning kamol topishida, fikrlash darajasining o‘sishida, bilim olishga havasini uyg‘otishda nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, shaxs kamolotida axloqiy, ekologik, nafasat, iqtisodiy kabi tarbiya turlari ta‘sir etadi. Ana shu tarbiyani amalga oshirishda integratsiyadan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Axloqiy tarbiyani amalga oshirishda integratsiya imkoniyatlari.

O‘qish darsligining deyarli ko‘p mavzulari odobnoma faniga uzviy aloqador va axloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 - sinfning o‘qish darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom-salomatlik ma‘nosini

ifodalaydi. Agar sendan necha holatda salomlashish kerak, deb so‘rasalar, yetti holatda deb javob bergin. Avvalo, yoru do‘stlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni ko‘rganda salom berishing lozim. Ikkinchi, jamoat joylariga borganingda salom berishing kerak. Uchinchi, biror xonadonga borsang u yerga salom berib kirgin. To‘rtinchi, bir yerda jam bo‘lib o‘tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin. Kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni xayrlashish salomi deyiladi. Beshinchi, maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber. Oltinchi, o‘z xonadoningga salom berishni kanda qilma. Ona tili darsligida ham ko‘p mashqlar odobnoma darslariga aloqador va tarbiyaga qaratilgan. Bu o‘qish darsini ona tili darsidagi “Olmosh so‘z turkumi” mavzusidagi 269-mashq bilan integratsiyalab o‘tish mumkin. Mashq shartida olmoshlarni topib, uni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirish topshirig‘i berilgan. O‘qituvchi bu she’rni o‘qib berar ekan axloqiy tomonlarini ochib berishi kerak. Shu bilan birga axloqiy tarbiyani tabiatshunoslik darsida ham amalga oshirish mumkin. 4-sinf darsligida “Tog‘ o‘rmonlari va o‘tloqlari” mavzusida: Tog‘larda dam olish vaqtida va turistik poxodlarda tabiatni juda avaylab, ehtiyot qilish zarur, daraxtlarga zarar yetkazish, shox-novdalarni sindirish, gullarni yulib dastalash, qushlar bilan hayvonlarni bezovta qilish mutlaqo yaramaydi. Bularni diqqat bilan kuzatib borish, fotosuratini olish mumkin. Ana shunda shu tog‘larda dam olganingiz to‘g‘risida uzoq yillarga xotira qoldirish imkoniga ega bo‘lasiz. Tog‘larda, dam olish joylarida gulxan yoqish mumkin emas. Chunki, gulxanlardan ko‘pincha yong‘in chiqib, odam uchun qimmatli bo‘lgan o‘simliklarga emas, balki hayvonlar ham nobud bo‘ladi, degan satrlar berilgan.

Mehnat darsida ham bolalarga ovqatlanish odobi, mehmon kutish odobi, kiyinish odobi, dasturxon tuzatish odobi kabi axloqiy tarbiya me’yorlari o‘rgatib boriladi.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishda integratsiya imkoniyatlari..

Ekologik tarbiya - bu insonni tabiatga dastlabki qadam qo‘ygan kunidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan

qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'-rog'lar, gulzorlar tashkil qilish orqali uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda integratsiyalashgan darslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda tabiatshunoslik fanining imkoniyatlari katta bo'lishi bilan birga, mazkur fan orqali o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar o'qish, ona tili, matematika, odobnoma, musiqa darslarida bu bilimlar mustahkamlanib, to'ldirilib boriladi. Masalan: tabiatshunoslik darsida ekologik tarbiyani amalga oshirishga bir qancha matnlar xizmat qiladi. Xususan, darslikdagi "Suv va havoni muhofaza qilish" mavzusi orqali o'quvchilarga suv va havo bo'lmasa butun jonzot yashay olmasligini hamma bilishi, har qanday tirik organizmning tarkibida suv bo'lishi haqida bilimlar berilishi mumkin.

Bolalarga ekologik tarbiya o'qish darsida ham o'rgatiladi. 4-sinf o'qish darsligida "Buzilmagan uya" mavzusi bor. Bunda: bir bola bog'da ishlayotgan bobosiga ovqat ola keta turib yo'lda o'rtoqlarini uchratadi. O'rtoqlari qush ovlagani ketayotganini aytadi va uni ham bu yo'lga tortishadi. Lekin bola kechikayotgani va bobosining qorni ochib qolishi mumkinligini aytib, o'rtoqlari bilan ketmaydi. Bobosiga ovqat yetkazib, ularga daraxt payvand qilgani yordamlashadi. Ular birga uyga keta turib yo'lda o'rtoqlarini uchratadilar. O'rtoqlari esa qush uyasini buzaman deb, daraxt butog'iga o'ralib, chumchuq bolalarini yeyishga payt poylab turgan ilondan qo'rqib, daraxtdan yiqilib qochib ketayotgan edilar. Bola bobosi bilan yerda yoyilib yotgan chumchuq bolalariga yordam berib, ilonnni o'ldiradi hamda o'rtoqlarining qilgan ishidan nafratlangan holda uyga qaytadi. Mazkur mavzuni o'rgatish barobarida o'qituvchi qushlar insonlarning do'sti ekanligini, ularga nisbatan mehrli bo'lishlari kerakligini misollar orqali tushuntirib berishi maqsadga muvofiqdir.

Nafosat tarbiyasini amalga oshirishda integratsiya imkoniyatlari.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarni did bilan rasm chizishga va nozik did bilan yondashishga o'rgatishi barchamizga ma'lum. Mehnat darslarida qizlar

kashta tikishga did bilan yondashadilar yoki dasturxon tuzatayotganda, kiyim tikayotganda ham bola did farosat bilan yondoshadi.

Yuqoridagi misollarni ko‘rib shuni aytish mumkinki, demak integratsiyaga imkoniyatlar mavjud, asosiy vazifa o‘qituvchilar tomonidan uni talab darajasida tashkil etish masalasidir. Biz tajriba-sinov ishlarini olib borgan maktab o‘qituvchisi biz tomonimizdan tavsiya etilgan ona tili, rasm va tabiatshunoslik darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etganidan so‘ng, shunday fikr bildirdi: “Bu tarzdagi integratsiyalashgan darslar bir qator avzalliklarga ega bo‘ldi. O‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ona tili, matematika, tabiatshunoslik, rasm, mehnat darslari oldiga qo‘ygan ta’limiy vazifalarni bajardilar. Shu bilan birga sharqning yetuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy ta’kidlaganidek, o‘quvchilar o‘zlarini bir vaqtning o‘zida turli-tuman bog‘larda yurgandek tasavvur qiladilar”. 4-sinf ona tili darsligida “Turg‘un bobom” nomli she’r berilgan bo‘lib, unda ekologik tarbiya ilgari surilgan [1.14].

Turg‘un bobom.	Suv quyar tunda.
Keng bepoyon	O‘zi juda ishga chaqqon,
vodiylarni,	Taniqli suvchi,
Ko‘rkam yoz bezar,	Uni sevar har dehqon,
Tun qo‘ynida Turg‘un	Har bir o‘quvchi.
bobom,	Zilol suvlar paxtazorda,
Dalani kezar.	Shildirab oqar,
Qo‘lidagi katta ketmon,	Gullayotgan ko‘m-ko‘k
Yarqirab kunda,	g‘o‘za,
Egatlarga shildiratib,	Bobomga boqar.

Bu o‘rinda ham avvaldan tayyorlanib kelgan o‘quvchi shoir biografiyasini gapirib beradi. So‘ngra o‘quvchilarga shoirning tug‘ilgan kuni va oyini son bilan yozish topshirig‘i beriladi, bunda o‘quvchilar sanani to‘g‘ri yozishga o‘rganadilar.

Ona tili darslari elementlarini tasviriy san’at va mehnat darslari bilan integratsiyalash masalasiga metodistlar, pedagoglar, psixologlar alohida e’tibor

qaratmoqdalar. Bu fanlar integratsiyasi o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlanishida, xotirasini yaxshilashda, nutqini takomillashuvida, boyishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ona tili va tasviriy san'at darslari integratsiyasida o'quvchilar asar mualliflarining tarjimai holi, asarlarni yaratish tarixi bilan tanishish bilan birga, asarni muhoakama qilish va tahlil qilish mobaynida ularning diqqati asar mohiyatiga qaratiladi. Asar bilan tanishish barobarida bolalar rasmni hayotda ko'rganlari bilan taqqoslaydilar, bu esa ularda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida rassomlarning asarlaridan foydalanish o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi, nutqini boyishiga yordam beradi, mustaqil ravishda ijodiy yondashuviga imkoniyat beradi. Rasm darslarida biror bir asar muallifi bo'lgan rassomning tarjimai holini o'quvchilar tomonidan gapirib berishlari, ular yaratgan asarlarni yaratish tarixi bilan tanishishlari barobarida o'quvchilar og'zaki nutqi ravonlashadi, takomillashadi. Shuningdek, ona tili darslarida yozma topshiriqlarni bajarishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi mazmundagi vazifani bajarishni topshirishi mumkin: daftaringizga uydan chiqib, maktabga kelguningizga bo'lgan yo'lni chizing, chizish vaqtida har bir burilish, yo'lning qayirilish o'rinlarini aniq ko'rsatishni taklif qilishi mumkin. Bu xildagi mashq, eng avvalo, o'quvchilarda xotirani mustahkamlaydi, qiziqishini orttiradi, o'quvchilarni bajarishi kerak bo'lgan vazifaga tayyorlaydi va, eng asosiysi, ular barmoqlarini yozuvga tayyorlaydi. Bunday xarakterdagi topshiriqlarni turli shakllarini o'ylab ko'rish va joriy etish mumkin. Bu, asosan ,o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Daftarga o'ylab chizilgan chiziqlar o'quvchini harflarni, so'zlarni chiroyli yozishga tayyorlaydi. Bunday daqiqalardan yozuv darslarida ham foydalanish mumkin. Quyidagi xarakterdagi topshiriqlar bir qator ta'limiy vazifalarni ham bajaradi: bola o'rganayotgan matnga rasm chizishni taklif qilish mumkin. Rasmni chiza turib, bola matnning mohiyatiga kirib boradi, o'qigan vaqtida e'tiboridan chetda qolgan undagi mayda elementlarni his qila boshlaydi. Rasmni chizish barobarida o'quvchi matn mazmuni va mohiyatini teranroq anglaydi, o'z fikriga ega bo'ladi.

Ona tili darslarini mehnat darslari bilan integratsiyalash ham qiziqarli, ham

o'ziga xosdir. Bunda ham, ona tili darslarini tasviriy san'at darslari bilan integratsiyalashgan kabi darsni ayrim qismlarini, yoki, uning boshida integratsiyani amalga oshirish mumkin. Ko'pincha, o'qituvchilar mehnat darslarida plastilindan, qog'ozdan foydalanadilar.

Boshlang'ich ta'limda o'qish va tabiatshunoslik darslarini integratsiyalash imkoniyatlari juda katta. Bu darslarda o'quvchilar o'zlarini o'rab turgan ona tabiat, undagi o'simlik va hayvonot olami, tabiat o'zgarishlari haqidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. O'qish va tabiatshunoslik darslarining umumiy tarbiyaviy maqsadlari bor: kichik maktab o'quvchilarida tabiatga ehtiyotkorona munosabatni, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash yotadiki, uni hal qilish pedagogdan turli metod va usullarni qo'llashni talab etadi. Umumiy maqsadlarning mavjudligi darsga tayyorgarlikda yaxlit birlikni amalga oshirishni taqozo qiladi. Darslarni shunday rejalashtirish kerakki, turli fanlarda berilayotgan bilimlar bir-birini to'ldirishi, takomillashtirishi zarur. Shu asnoda bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ularda unga nisbatan insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish amalga oshiriladi. Bunda tabiatshunoslikni o'qitishda biz sezishdan anglashdan qarab boramiz. O'qish darslarini o'rganishda eng avvalo o'quvchilarni sezgilariga ta'sir qilinadi, biz ularda ishonch uyg'otamiz, ularni did-farosatlarini oshiramiz. Misol keltiramiz: tabiatshunoslik darslarida bolalar qushlar hayoti bilan yaqindan tanishadilar: qishda issiq o'lkalarga uchib ketadigan qushlarni aniqlaydilar, yovvoyi o'rdak, qaldirg'och va turnalarning tashqi ko'rinishi, ovqatlanishi, ko'payishi bilan tanishadilar. Ularning nima uchun issiq o'lkalarga uchib ketishlari, bu parvozga qanday tayyorgarlik ko'rishlari, parvozni qanday tartibda amalga oshirishlari, qachon bola ochishlarini o'rganadilar. Xuddi shu darsda o'quvchilar qushlarni o'ldirish, inlarini buzish mumkin emasligini, inidan tushib ketgan qushlarni uyga olib kelish noto'g'ri ekanligi haqidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Shu mazmundagi darslarda tabiatga munosabat odobini tarbiyalashga xizmat qiladigan san'at asarlaridan foydalanish o'quvchilar hissiyotiga kuchli ta'sir etishi bilan birga ularda tabiatga munosabat odobini ham

tarbiyalaydi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, adabiyotlarni o'rganish mobaynida o'qish, tasviriy san'at va musiqa darslarini muvaffaqiyatli integratsiyalagan Podolsk shahri o'qituvchilarining ish faoliyatlari diqqatga sazovordir. Mazkur shaharning № 4 sonli gimnaziya maktabi o'qituvchisi V.I.Lyamina Rossiya nashri bo'lgan «Начальная школа» jurnalida o'z ish tajribalari, o'rinli tavsiyalari bilan bir necha bor qatnashganligining guvohi bo'ldik. Ana shunday maqolalaridan birida u shunday yozadi: «Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda o'quv predmetlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi ishonchli vosita sifatida maydonga chiqadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qish darslari musiqa va tasviriy san'at bilan yaxshi integratsiyalashadi. Aynan ana shunday darslarda o'quvchilarda jonli mushohada va idrok rivojlanadi, estetik did oshadi. Ona tiliga, tabiatga, adabiyotga, musiqaga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi, dunyoqarashi boyiydi, shakllanadi. Bu muammo meni juda ham qiziqtiradi. Menda shunday fikr uyg'ondi: men o'zim shunday darslarni tashkil qila olamanmi? degan savol meni o'ylantirdi. Bu toifa darslarni tashkil etish juda qiyin, sababi ular hajm jihatdan ham, oldiga qo'ygan vazifalari ko'lami ham katta. U o'qituvchidan katta ijodiy mehnatni talab etadi. Bunday darslarni tez-tez o'tkazish ham noto'g'ri, bunda ular o'zining yangiligi, qiziqarliligini yo'qotadi. Shu bilan birga dasturdagi barcha mavzular va bo'limlarni integratsiyalash mumkin ham emas, kerak ham emas. Shunday bo'lsa ham men urinib ko'rishga qaror qildim. O'qish, ona tili, musiqa dasturlarini yana bir marta diqqat bilan o'rganib, tahlil qilib chiqdim. O'qish, ona tili, musiqa darslarini integratsiyalashgan 2 soatga mo'ljallangan "Kumush qish" mavzusidagi darsni tashkil qildim. Dars juda yaxshi bo'ldi, o'quvchilarga ham yoqdi. Bu darsning o'ziga xos xususiyati fanlardagi mazmunan va mohiyatan o'zaro yaqin bo'lgan mavzularni alohida qog'ozlarda matn sifatda o'rganilishidadir". Shuningdek, V.I. Lyamina "Bahor keldi" (ona tili, o'qish, musiqa) integratsiyalashgan darsining dars ishlanmasini ham tavsiya qiladi. Darsda o'quvchilar yangi notanish matnlar orqali tabiatdagi o'zgarishlarni o'rganadilar, har bir faslni o'ziga xos jihatlarini qayd etadilar, o'rganilgan mavzuni takrorlaydilar, yangilarini o'zlashtiradilar. Bundan tashqari o'quvchilar

matn sarlavhasiz berilganligi uchun, unga sarlavha qo'yadilar. Bu o'quvchilarni nutq ustida ishlashga, uni ifodali bayon qilishga o'rgatib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga xizmat qildi. Dars yakunida o'quvchilar o'zlari tasavvurlari asosida rasm chizdilar. P.I.Chaykovskiyning «Yil fasllari» nomli asarini tinglaydilar. So'ngra insho yozdilar. Bolalarga dars juda ham yoqdi, ular darsda faol ishtirok etdilar. Shuningdek, diyorimizda nashr ettiriladigan "Boshlang'ich ta'lim" jurnalining 2013 yil № 8 sonida "Boshlang'ich ta'limda integratsiya muammolari" nomli maqolasida N.Voxidova integratsiyalangan darslarga misol keltirib, o'qish va ona tili darslarini integratsiyalashni tavsiya etsa, M.Arabova ona tili va mehnat darslarini integratsiyalashga doir dars ishlanmasini tavsiya etadi va fikr mulohazalari bilan o'rtoqlashadi.

2.2 Ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlik o'rnatishda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik tavsiyalar.

Mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida o'qituvchilar uchun quyidagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- ▶ fanlararo aloqadorlik o'rnatayotganda o'qituvchi fan talablari, dars mavzusi, dars maqsadini hisobga olishi lozim.
- ▶ ona tili fanini quyidagi fanlar bilan bog'lash maqsadga muvofiq: o'qish, tabiat, rasm, ingliz tili, mehnat, odobnoma, matematika, musiqa.
- ▶ o'qish darslarini quyidagi fanlar bilan bog'lash maqsadga muvofiq: ona tili, tabiat, odobnoma, rasm, ingliz tili, mehnat, musiqa.
- ▶ fanlarni integratsiyalashda faqat 2ta fanni emas 3dan ortiq fanni ham integratsiyalash mumkin. Masalan, 1-sinf ona tili darsligidagi 36-mashqda Qambar Otaning "Til topishdi" she'rini o'qish, tabiat, rasm bilan bog'lash mumkin. Bunda sinf 3guruhga ajratiladi.

Fanlararo aloqadorlik oʻrnatilganda oʻquvchi dars mazmunini chuqur anglaydi va hayotni yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qiladi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, bu fanlarni integratsiyalashda oʻtiladigan mavzu ham muhim ahamiyatga ega, yaʼni har qanday mavzuni ham integratsiyalash imkoniyati yoʻq.

Fanlarni integratsiyalashda faqat 2ta fanni emas, 3 va undan ortiq fanni ham ozaro bogʻlash mumkin. Masalan, 1-sinf ona tili darsligidagi 36-mashqda integratsiyani qoʻllaymiz. 36-mashq. Sheʼrni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni tahlil qiling.

Til topishdi (Qambar Ota)

Uchrashdilar

Gʻoz va oʻrdak

Isming nima?

Menikimi?

Gʻoq-gʻoq-gʻoq.

Senikichi?

Gʻo-gʻo-gʻo.

Bir zumda til

Topishdi.

Oʻynagani

Chopishdi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarni munozaraga chorlaydi. “Bolalar, oʻrdak va gʻozlarni hech kuzatganmisiz?” deya murojaat qiladi. Soʻngra sinf 3 guruhga boʻlinib, 1-guruh oʻrdakni, 2-guruh gʻozlarni ogʻzaki taʼriflaydilar, 3-guruh esa oʻrdak va gʻoz rasmini chizadi. Soʻngra shu asosda ular bahsga kirishadilar, oʻrdak va gʻozlarning oʻxshash va farqli jihatlari aytiladi, oʻqituvchi fikrlarga yakun yasab, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni tahlil qildiradi. Bunday darslarda guruhlar bila ishlash juda samarali va vaqtni tejaydi.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash oʻqituvchi (taʼlim berish) va oʻquvchi (taʼlim olish) harakatlarining mos kelishini koʻzda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun,

vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning quyidagi bosqichlari mavjudligi aniqlandi:

1. Maqsadli bosqich. O'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular e'tiborlarini, fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.
2. Isbotlash bosqichi. O'qituvchi o'quvchilarni dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'batlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.
3. Mazmunli bosqich. O'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.
4. Vositalarni o'qituvchi bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi tanlash bosqichi. Turli predmetlarni, ko'rgazmali vositalarni, darsliklarni, jadvallarni, savolnomalarni, amaliy vazifalarni tanlaydi. Bu vositalar o'quvchilarga ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakteridagi integratsion masalalarni hal qilishga yordam beradi.
5. Natijali bosqich. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirib ularni amalda qo'llaydi.
6. Nazorat qilish bosqichi. O'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat qiladi, o'zlashtirishlarini baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham,

ularni birlashtirish ko'nikmalarini ham nazorat qiladilar. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalar aniqlandi:

Usul va vositalar nomi

1. Evristik suhbatlar.
2. Umumiy suhbatlar.
3. Ekskursiyalar.
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
5. Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
6. Mustaqil ishlar.
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish.
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar).
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish.
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda).
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar.

O'quv jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchisini faol hayotga va o'z shaxsini namoyon qilish jarayoniga kiritib, ularning har birini beixtiyor faol aqliy jarayonga tayyorlaydi va shu yo'l bilan o'quv mashg'uloti qo'ygan maqsadni amalga oshirishga erishadi. Lekin bu maqsadlar ham samarali bo'lishi uchun darsni qanday hamda qaysi usullardan foydalanib tashkil etilishiga e'tibor qaratish lozim.

Integratsion texnologiya asosida o'tkaziladigan darslar, aynan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi. SHu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarini faolligini oshiradi. [2.22]

To'g'ri, integratsion dars faqatgina fanlarning yoki mavzularning uyg'unlashtirilishi bilan samarali bo'lib qolmaydi. Chunki ushbu mujassam darsning samaradorlikka erishish uchun maqsadlarni aniq qo'yish, darsni tashkil

etishda interfaol metodlarni qo'llash muhim sanaladi. Bu usullar orqali uyg'unlashgan dars maqsadiga erishiladi va o'quvchilarning bilim olish jarayoni osonlashadi. Integratsion darsda bunday metodlarni qo'llash quyidagi sifatlar va malakalarni shakllantiradi:

- o'qituvchi va o'quvchining butun dars davomida birgalikda faoliyat yuritishi;
- dars jarayonda har bir o'quvchining faol ishtirok etishi;
- sinfda iliq ruhiy muhit yaratish;
- beriladigan o'quv fani bo'yicha o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish;
- shaxsning o'z qobiliyatlarini namoyon qilish va o'zining ichi imkoniyatlaridan foydalana bilish;
- guruh bo'lib faoliyat yuritish va shu guruhda yoqimli psixologik muhit yaratish;
- berilgan muammolarni hal qilishda o'zining shaxsiy farazlarini ilgari surish;
- muammolarni yechish jarayonida mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlay olish;
- guruh ichida shaxsiy ma'suliyatchilik hissini kamol toptirish;
- o'z faoliyatining samrali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash;
- boshqalar fikrlarini baholashda tanqidiy yondashish;
- yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyatini shakllantirish;
- mustaqil fikrlay olish va erkin faoliyatga, faollik ko'rsatishga intilish;
- o'zgalar fikriga hurmat qilish va fikrlarni xolis baholashga o'rganish;
- o'zaro yordam hissini shakllantirish;
- o'zaro fikrlashish, tajriba almashishni yo'lga qo'yish;
- o'z fikrlariga tayanish va fikrlarini isbotlovchi dalillar keltira olish;
- muammoni yechish jarayonida har bir o'quvchi o'zi bilgan, esga tushirgan, o'ylagan ma'lumotlariga tayanish;
- birgalikda aqliy bilim jarayonida fikrlashga tez kirishish;
- munozara jarayonida birgalikda o'qish muhokama qilish, e'tiroz bildirish;
- o'quv materiallari bo'yicha beriladigan bilimlarni chuqurlashtirish;
- o'zaro nazorat va guruhlararo nazoratni yo'lga qo'yish kabilar.

Integratsion mashg'ulotlarda o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda faoliyat yuritadilar. Eng asosiy faoliyatdagi shaxs endi o'qituvchi emas, balki o'quvchilar bo'ladi. o'qituvchi esa ularni nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi shaxs hisoblanadi. Shu bois ham quyida biz muvofiqlashgan darslarda qo'llanishi mumkin bo'lgan interfaol usullarning ayrimlari bilan tanishtirib o'tamiz.

“Kichik guruhlarda ishlash”.

Integratsion mashg'ulotlarni o'tkazishda mavzuning xususiyatiga qarab o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish amalga oshiriladi. “Kichik guruhlarda ishlash” usuli muammoli o'qitish texnologiyasiga kirib, o'quvchi faolligini oshirish va jadallashtirishga asoslanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” usuli o'quvchilarning har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan bilimlarini oshirishga imkon yaratadi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. Bunda sinf o'quvchilari soniga qarab 3-4 ta guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhlarda ishlash usuli berilgan muammoni bir necha guruhlariga bo'linib yechishni, har bir o'quvchini faol ishtirokini ta'minlaydi. Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalar aniq taqsimlanishiga tayanadi va faollikka undaydi.

“Tarmoqlar” yoki “Klaster” usuli.

Boshlang'ich sinfda integratsion dars orqali o'quvchilarni fanlararo bilimlarini aniqlash maqsadida yoki o'tilgan dars bo'yicha qanday tushunchalarni anglaganliklarini aniqlash maqsadida “Tarmoqlar” usulidan foydalanish zarurdir. Bu usul o'quvchilarni o'quv faolliklarini oshirishda muhim hisoblanadi. Odatda o'quvchilarning ba'zi birlari sutskash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularga o'qituvchi matnni tushuntiradi, shuning uchun ularning bilimlariga o'qituvchi mas'ul, degan ishonch shakllanib qolgan. “Tarmoq” usuli orqali esa, u boshqalar bilimigagina tayanmasdan, balki o'z fikrlarini ifodalashga urinadi.

Tarmoq (klaster) – fikrlarning tarmoqlanish strategiyasi bo'lib, o'quvchilarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bemaolol o'ylashga, faol harakat qilishga yordam beradi. “Tarmoq” individual yoki guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan strategiyadir. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni,

fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan bog'langan. Bundan tashqari bu usul o'quvchilarni biror-bir mavzuni chuqur o'zlashtirishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlarini o'rgatadi.

«Kubik» usuli.

Bu usul ham o'quvchilarni faollashirishda, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlashlari uchun zarurdir. Buning uchun tomonlari 20 santimetrdan katta bo'lmagan kubik yasaladi. Uning 6 ta tomoniga mavzuga oid 6 xil ko'rsatma yozib qo'yiladi. Bu ko'rsatmalar har bir tomonning yoritilishini, o'quvchilar ana shu muammoni 6 xil ko'rinishini muhokama qilinishini ta'minlaydi. «Kubik» usulini guruhlarda yoki individual holda qo'llash mumkin. Asosiysi kubikning 6 ta tomonidagi topshiriqlarni og'zaki yoki yozma tarzda ifodalanadi. Buning uchun ma'lum vaqt beriladi.

“Olti o'ylantirgich qalpoqchalar” usuli.

Bu usul biror narsa ustida fikr yuritayotib, o'quvchilarni bir necha operatsiyalarni bajarishga harakat qilishga undaydi. Ular dalillarni tahlil qilishga, mavjud e'tirozlarni asoslashga urinadilar va ularni barchasini barobariga bajaradilar. Olti o'ylantirgich qalpoqcha – bu bir urinishda bittadan fikrlash harakatini bajarishga taklif qiluvchi usul. O'quvchilar barcha ishlarni birdaniga bajarishga urinmay, bittadan qalpoqni kiyadilar, hammasi bo'lib 6 ta turli rangdagi qalpoq mavjud va ularning har biri fikrlashning ma'lum turiga mos keladi. Bu usul aynan integratsion darslarda qo'l keladi va boshqalardan foydalaniladi.

“Bozorda” o'yini

Sabzavot va mevalarning rasmlari ishlangan kartonlar yozuv taxtasiga osib qo'yiladi. Bu yerda karam, uzum, nok, olxo'ri, piyoz, va hokazolarning rasmlari bor.

O'qituvchi: - So'zlarni mevalar va sabzavotlar guruhiga ajrating.

- 1kg piyoz 4so‘m tursa, 4kg piyoz qanch turdi?

Shunga o‘xshash savollar beriladi. O‘yindan keyin bolalardan so‘rash kerak:

O‘qituvchi: - Siz hovlida o‘ynayapsiz. Birdan oyingiz bozordan to‘rxalta to‘la meva va sabzavotlar olib kelayotganini ko‘rib qoldingiz. Shunda siz nima qilasiz?

Bolalar: “To‘rxaltani ko‘tarishda oyimizga yordam beramiz”, deb javob qilishdi. Ularning fikrlari ma‘qullanadi.

O‘qituvchi: - Sizlar meva va sabzavotlarni yetishtirishda ishtirok etasizlarmi?

“Sirkda” o‘yini

Maqsad: bir necha fanlar orasidagi aloqadorlik asosida o‘quvchilarning nutq, gap, so‘z to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlash.

Jihozlar. Sirkdagi artistlarning kartondn yasalgan rasmlari. Ular dars davomida osib qo‘yiladi. Yozuv taxtasiga vazifalar yozilgan.

O‘yinning borishi:

O‘qituvchi: Bolalar bugun biz sirkka taklif qilinganmiz. Artistimiz bilan birgalikda eng aqlli, madaniy muomala qilish qoidalariga rioya etadigan va ona tilini yaxshi biladigan o‘quvchilarni olamiz. Oralaringizda shunday bolalar bormi? Buni biz uch vazifani bajarganingizdan so‘ng aniqlaymiz.

1. Diqqat bilan eshitinglar:

“Yomon otda yurguncha, yayov yurgan yaxshiroq” .

“Yaxshini maqtasa yarashar” maqollarining mazmunini tushuntiring.

2.Yulduz, soya, yong‘oq, yurt, tuya, arpa, tish, tuz, patir, pishloq. Shu so‘zlar ichidan bo‘g‘inlarga ajratilmaydigan so‘zlarni ayting.

3. Mebel, piyoz, sabzi, yulduz, zavod, daftar, harf, vazifa, gulzor. Bu so‘zlarni alifbo tartibida ayting.

O‘qituvchi: - Barakalla! Siz, hammalaringiz vazifalarni yaxshi bajardingizlar, endi bemaolol sirkka borishimiz mumkin.

Bolalar madaniy muomala qoidalariga rioya etib, sirkdagi aetistlar bilan tanishadilar. Ularni birinchi bo‘lib zebra kutib oladi.

O'qituvchi: - Bolalar, bunaqa belgini qayerda uchratgansizlar? (Yo'lovchilar yo'lakchasida). Nega o'sha yo'lakchani zebra deyishadi? (Yo'lakcha zebra o'xshagani uchun.) Yo'lning qayeridan o'tish kerak? (Yo'lovchilar yo'lakchasidan)

O'qituvchi: - Siz bo'g'inlardan so'zlar tuzishni o'rganib oldingizmi yoki yo'qmi, bu savol zebrani qiziqtirmoqda: poq, nav, op, zi, chi, tab, tob, bat va h.k.

Bolalar vazifani tezda bajarishadi. Sabzi, oppoq, maktab, vazifa, kitob, navbatchi, degan so'zlar tuzishadi, so'ngra masxaraboz bilan uchrashdilar.

Masxaraboz: - Urug', to'kib, ter, sochsang, quruq, seni, yer, qo'ymas. Bolalar, bular nima? (So'zlar)

O'qituvchi: - Masxaraboz qanchalik urinmasin shu so'zlardan maqol tuza olmagan ekan. Bolajonlar, sizlar, masxarabozga yordam beringlarchi? (Ter to'kib sochsang urug', yer seni qo'ymas quruq.) Ma'nosini so'rayman (agar hammamiz ter to'kib mehnat qilsak, ya'ni ko'p o'qisak, kelajagimiz sermazmun va porloq bo'ladi.)

Shundan keyin bolalarni ayiqcha kutib oladi. U so'zlarni oldingi qatordan keyingi qatorga ko'chirishda qaysi qatordagi javob to'g'ri ekanligini bilmoqchi:

Az-iz, o-na, ik-ki.

Ki-tob, va-zi-fa, nutq.

Mashq, da-raxt, re-ja.

O'qituvchi: - Bolalar, ayiqchaga yordam beringlar. (Uchinchi qatordagi so'zlar to'g'ri ko'chirilgan.) So'ngra bolalarning qarshisida tulen chiqadi. U ham bolalar uchun vazifa tayyorlagan:

a) bolalar, qushlarni seving!

b) qushlarning yoqimli ovozi eshitildi.

d) qushlar kuzda qayerga uchib ketadi?

Qaysi qatordagi gap undov gap? (a qatordagi gap).

O'qituvchi: - Barakalla, siz eng aqlli, eng ahil, ona tilini yaxshi biladigan bolalar ekansizlar. Sirkdagi artistlar bolalar bilan xayrlashadi.

Har qanday bolaning psixik ruhiyatida ijodiy shaxsga xos muhim xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ammo bolalarning ijodiy faoliyati bilan kattalar ijodiy madaniyati namunalariga teng nazar bilan qaramaslik lozim, biroq ijodiy imkoniyatlarni ham e'tiborga olish muhimdir. Shuni aytish joizki, asosan ko'pchilik o'quvchilarda o'quv materialini egallashdagi qiyinchilik tafakkurning xususiyatlarini yetarli darajada shakllantirilmaganligi bilan tushintirish mumkin. Masalan, tahlil qila olmaslik, taqqoslash, umumiydan asosiysini ajrata olmaslik, faollikning yetishmasligi, uyatchanlik, tafakkurning egiluvchanligi va boshqalar. Aynan integratsiyalashgan mashg'ulotlardagi mavzularga oid didaktik o'yinlar o'quvchilarni fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'yinlarni dars vaqtida charchoqni tushurish diqqatni jamlashda qo'llash mumkin. Ular o'qish va dam olishni to'g'ri tashkil qilishga, mashg'ulotlarda o'quvchilarning emotsional qobiliyatini ko'tarishga yordam beradi. Guruhiy o'yinlar esa bolalarda o'zaro tushunish, hurmat bir-biriga ishonchni rivojlantirishga qaratilgan.

Idrok jarayonini rivojlantiruvchi o'yinlar.

1. Rasmlar tahlili. Oddiydan murakkablashtirib, bolalarga xilma-xil rasmlar ko'rsatiladi (2-3 daqiqa) keyin rasmlar olib qo'yiladi bolalarga rasmlarda nima ko'rganliklarini hikoya qilib berish so'raladi. Bu o'yin idroknigina emas, ko'rgazmali xotira, nutqni rivojlantirish, kuzatuvchanlikni oshirish omili ham bo'lishi mumkin. Bu o'yindan asosan o'qish, ona tili, tabiat darslarini uyg'unlashtirganda foydalanish mumkin sanaladi. Tanlangan rasmlar o'tilayotgan mavzuga oid bo'lishi lozim.

2. Tovush sonini aniqlash o'yini.

O'qituvchi qalam bilan bir necha marta stolni taqillatadi. Bola necha marta urilganligini sanab, aytib berishi kerak.

3. Sehrli tomchi. Bir varoq qog'ozga bir tomchi rang tomgizilib, qog'oz buklanadi. O'quvchilar tomchini nima o'xshashligini aytib berishlari zarur. Eng ko'p predmet nomini aytgan bola g'olib hisoblanadi.

4. Rasmni davom ettir. Har bir o'quvchida qog'oz va qalam bo'lishi shart. Birinchi o'quvchi qandaydir rasmni chizishni boshlaydi. Keyingi o'quvchi

boshlangan rasmni nima ekanligini aytib, uni davom ettiradi. O'yin mana shu tarzda to ishtirokchilar chizilayotgan rasmga biror bir qo'shimcha kiritib olmaguncha davom ettiriladi. Rasmga so'ngi nuqta qo'ygan ishtirokchi g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni sinf taxtasida yoki guruh-guruh qilib aylana holda o'tirgizib qo'yilgan o'quvchilar o'rtasida o'tkazish mumkin.

Demak, bunday psixologik o'yinlar integratsiyalashgan darsning mavzulariga moslangan holda o'quvchilarni fikrlarini bir joyga jamlash, dam oldirish uchun qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

Ma'lumki o'qish va odobnoma darslari mazmuni va vazifasi jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ushbu fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari juda keng va qulay. O'qish darslari o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirish bilan birga bir qator tarbiyaviy vazifalarni amallga oshiradi. Odobnoma darslariniing asosi maqsadi esa o'quvchilarni har tomonlama, milliy an'analarimizga xos tarzda tarbiyalashdir.

Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o'quvchiarga berilayotgan bilimlarni takrorlanishini oldini olish, bir hillikka barham berish va vaqtni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko'rib o'tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko'p vaqtni tejagan holda o'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo'ladi.

II BOB BO'YICHA XULOSA

Magistrlik ishimizning ikkinchi bobida biz o'rganilgan ma'lumot va materiallarimizni tizimlashtirdik hamda ayrim xulosalarni ishlab chiqdik. Bundan tashqari ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqa asosida ishlangan darslardan ayrim parchalarni keltirdik. Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bir tomondan dastur talablarini o'zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida fanlararo bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi.

O'quvchilar o'qish darslarida hikoya va matnlarni o'rganish orqali undagi bosh g'oyani qismlarga ajratishga, hikoya va matnlarning ma'nosini tushunishga o'rganadilar. Ayni vaqtda bu jarayonda o'quvchilarning faqatgina nutq boyliklari oshibgina qolmay, bu asarning mualliflari, undagi san'at turlari haqida ham bilimga ega bo'ladilar. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini madaniyatga, san'atga oshno qiladi.

Ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirganda o'quvchi bu fanlarning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq ekanligini tushunishdan tashqari olamni bir butun sifatida anglab yeta boshlaydi.

Fanlararo aloqadorlik o'rnatilganda o'quvchi dars mazmunini chuqur anglaydi va hayotni yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu fanlarni integratsiyalashda o'tiladigan mavzu ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni har qanday mavzuni ham integratsiyalash imkoniyati yo'q.

III BOB. MAVZUNI AMALIYOT BILAN BOG‘LASHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

3.1 Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

Boshlang‘ich ta’limga integratsion yondashuv texnologiyasining tatbiqiy masalalari asosan amalga oshiriladigan tajriba-sinov ishlari bilan bog‘liq.

Eksperiment Buxoro shahridagi 35- va 17-son hamda G‘ijduvon tumanidagi 40-son umumta’lim maktablarida o‘tkazildi. Tajriba, asosan, 2 bosqichda amalga oshirildi. 1-bosqichda tayyorgarlik ishlari, so‘rovnomalar o‘tkazish rejalashtirildi va bu 2018-2019 o‘quv yilida amalga oshirildi. 2-bosqichda fanlararo aloqadorlik asosida dars ishlanmalari ishlab chiqish, bu asosida integratsion darslar tashkil etish, tajriba va nazorat sinflari orasidagi tafovutni aniqlab, samaradorlikni aniqlash madsad qilindi hamda bu 2019-2020 o‘quv yilida malga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik sifatida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanlararo aloqadorlik o‘rnatishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun ilmiy-metodik ma’ruzalar tashkil etildi;
- 2) integratsion darslarning boshqa darslardan farqli tomonlari tahlil qilib ko‘rsatildi;
- 3) integratsiyalanadigan fanlarni tanlash mezonlari qayd etilib, ularning dars mavzusi, turlari bilan bog‘liqligi pedagogik jamoalarda muhokama qilindi, aloqadorlik o‘rnatish yo‘llari amaliy ko‘rsatildi;
- 4) tajriba-sinov izlanishida qatnashadigan sinf o‘quvchilarining real bilish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning ajralmas qismi bo‘lib, u sohaga oid har qanday izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiyligini tasdiqlashning bosh mezoni hisoblanadi. Tadqiqotchi va amaliyotchi pedagoglar aniq ta’limiy muammolar yechimiga bag‘ishlangan

tajriba-sinov ishlaridan o'z pedagogik va metodik mavqeyini oshirish, qo'llanilayotgan pedagogik innovatsiyalar tasdig'ini topish, ta'limda sifat o'zgarishi yasashga intiladilar. Demak, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va qatnashishda tadqiqotchi va amaliyotchi pedagoglar uchun turli sabablar va motivlar bo'lishi mumkin, biroq yagona bir shart mavjudki, unga ko'ra bu jarayonga o'z hissasini qo'shishga qaror qilgan har bir ijrochi o'z kasbining ustasi bo'lishi, bor kasbiy mahoratini ishga solishi talab etiladi. Tajriba-sinov jarayonida yuksak natijalarga erishish uchun tadqiqotchi ishini rejalashtira olish, vazifalar tizimini aniq belgilash, ular orasidan muhimlarini ajrata olish, qo'yilgan vazifalarning tez va tejamli bajarish usullarini topa bilish, vazifalarning bajarilishini tezkor va aniq nazoratini amalga oshirish, o'z ishini tashkil qilishga tegishli o'zgartirish va tuzatishlar kirita olish, olingan umumiy natijalarni tahlil qila olish, ularni belgilangan talablar bilan qiyoslash, talablarni bajarilmaslik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf eta olish bilan bog'liq, maxsus bilim va ko'nikmalar tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim islohotlari sharoitida tizimli ravishda amalga oshirilayotgan tajriba-sinov ishlari amaliyoti ko'rsatib turibdiki, tajriba-sinov dasturlari, mazmuni hamda qo'llaniladigan metodik vositalarining puxta ishlab chiqilishi, amalga oshirilish ko'lamining to'g'ri belgilanishi belgilangan maqsadlarga erishishning hal qiluvchi shartlaridan biri hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari sifatiga ta'sir qiluvchi bir qancha obyektiv hamda subyektiv omillar mavjud. Jumladan, tajriba-sinov o'tkazuvchi tadqiqotchining xohish-istaklari, uning intiluvchanlik darajasini subyektiv omillar qatorida, tajriba-sinov ishlariga qo'yiladigan me'yoriy-huquqiy hamda pedagogik-psixologik talablarni obyektiv omillar qatorida qayd etish mumkin. Bu kabi talablar tajriba-sinov ishlarining turi (izlanuvchi, tasdiqlovchi yoki shakllantiruvchi), ko'lami (respublika, mintaqa, viloyat yoki shahar va tuman darajasida, maktablararo, maktab darajasida, individual yoki jamoaviy tajriba-sinov maydoni); tajriba-sinov ishlarining miqyosi (muddati, o'quv materialini hajmiga ko'ra bir qancha mavzular, chorak, o'quv yili, bir necha yilni qamrab oluvchi) va boshqalarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim muassasasi ma'muriyati tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish borasidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash bilan bog'liq tadbirlar majmuini amalga oshirishi lozim, jumladan: amaliyotchi o'qituvchilarni tajriba-sinov jarayoniga jalb etishning motivatsion shart-sharoitlarini ishlab chiqish; tajriba-sinov jarayonining barcha ishtirokchilari (o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalari)ni yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan saqlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslarni belgilab olish; tajriba-sinov ishtirokchilariga nisbatan muayyan talablarni belgilash zarur.

Tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlari o'zining aniq belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini nazarda tutuvchi quyidagi talablarni bajarishga yo'naltirilmog'i lozim: dastlab pedagogik jarayonlarni boshqarish, unga zarur tuzatishlarni kiritish imkonini beruvchi tajriba-sinov ishlarining dasturi ishlab chiqilishi, unda tajriba-sinovga oid tadbirlar rejasi, kutilayotgan natijalar, unga erishilganlik darajasini belgilash usullari aks ettirilishi lozim. Tajriba-sinov ishining muayyan davri yakunlariga ko'ra tahlillar o'tkazib borilishi, ular hisobotlar, ma'lumotnomalar hamda maqolalar kabi shakllarda rasmiylashtirilishi lozim. Bu ortiqcha rasmiyatchilik emas, balki tajriba-sinov ishlarining zaruriy sharti, tajriba-sinov natijalarining asosiligi hamda amalga oshirilayotgan tadbir muhimligini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi. Bu boradagi masalalar aniqlashtirilmasdan turib, tajriba-sinovni o'tkazayotgan tadqiqotchi nimalarni hal qilayotganligi, qanday natijalarni kutayotganligi va qanday baholash mezonlari asosida ish yuritayotganligi, natija sifatida nimalarga erishganligi mavhum bo'lib qolaveradi.

Tajriba-sinov ishlari dasturida ilmiy farazning to'g'ri shakllantirilishi uning murakkablik darajasi hamda yo'nalishini belgilab beradi. Faraz umumiy yoki xususiy, intuitiv yoki mantiqan asoslangan, ilmiy asoslangan bo'lishi mumkin. Odatda, faraz quyidagi tuzilishga ega o'ziga xos formula asosida shakllantiriladi: "agar ... bo'lsa, ... ga erishiladi". Misol uchun bizning tadqiqotimizning farazi: "Agar ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlik amalga oshirilsa, ularda

fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil o‘zlashtirish qobiliyatlarini muvaffaqiyatli shakllantirishga erishiladi”.

Tajriba-sinov ishlarining yana bir muhim jihati kutiladigan natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Agar, mezonlar to‘g‘ri tanlanmasa, ilgari surilgan farazning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, taklif etilayotgan ishlanmalarning samaradorlik darajasini obyektiv baholab bo‘lmaydi. Ushbu mezonlarni ishlab chiqishda tadqiqotchi tajriba-sinov jarayonida qo‘llaniladigan materiallar (o‘quv dasturlari, metodikalar, didaktik tamoyillar, pedagogik usullar majmuasi) ta’sirida o‘quvchilarda yuz beradigan o‘zgarishlar qaysi nuqtai nazardan baholanishini belgilab oladi. Navbatdagi vazifa sifatida olinadigan natijalarni baholashning didaktik vositalari ishlab chiqiladi. Bunday vosita sifatida anketalar, test savollari, nazorat topshiriqlari, suhbat o‘tkazish uchun savollar va h.k.lar xizmat kilishi mumkin. Ularning barchasini ishlab chiqish va yoki tanlashda tajriba-sinov ishlaridan kutiladigan natijalarni baholash mezonlariga e’tibor qaratiladi. Biz fan o‘qituvchilari, o‘quvchilar uchun so‘rovnomalar ishlab chiqdik va ularni diqqat bilan o‘rgandik.

O‘quvchilar uchun anketa savollari.

- 1.Siz qaysi fanni yoqtirasiz? Nima uchun?
- 2.Ona tili darsining dam olish daqiqalarida jismoniy mashqlardan foydalanish sizga yoqadimi?
- 3.O‘qish darsining dam olish daqiqasida jismoniy mashqdan foydalanish sizga yoqadimi?
- 4.Ona tili darslarida ayrim so‘zlarni ingliz tilida aytish siz uchun qiziqarlimi?
- 5.O‘qish darslarida ayrim so‘zlarni ingliz tilida aytish siz uchun qiziqarlimi?
- 6.O‘qish darslaridagi tabiat va jonivorlar haqidagi she’r va hikoyalar siz uchun qiziqarlimi?
- 7.Ona tili darslarida tabiat manzaralari tasvirlangan mashqlarni bajarish sizga yoqadimi?
- 8.Mashqlarda berilgan buyuk bobokalonlarimizning hikmatli so‘zlarini yod olasizmi?

9.O'qish darslarida berilgan maqol va hikmatli so'zlarning ma'nosini dars jarayonida muhokama qilasizlarmi?

10.O'qish darsidagi ertak qahramonlarini chizib ko'rganmisiz?

O'qituvchilar uchun anketa savollari.

1.Integratsion yondashuv deganda nimani tushunasiz?

2.Ona tili darslarini qaysi predmetlar bilan bog'lash ko'proq samara beradi, deb o'ylaysiz?

3. O'qish darslarini qaysi predmetlar bilan bog'lash ko'proq samara beradi, deb o'ylaysiz?

4.Siz har doim ona tili va o'qish darslarida integratsiyani qo'llaysizmi?

5.Sizningcha, integratsiyasiz ham dars o'tsa bo'ladimi?

6.Ona tili darsini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishda nimalar hisobga olinishi kerak deb o'ylaysiz?

7. O'qish darsini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishda nimalar hisobga olinishi kerak deb o'ylaysiz?

8.Ona tili darslarining qaysi qismida integratsiyani qo'llash mumkin?

9.O'qish darslarining qaysi qismida integratsiyani qo'llash maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

10.Ona tili darslarida qanday mazmundagi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar qiynaladi?

Ilmiy tajriba davomida jami 20 ta boshlang'ich sinf o'qituvchisi, 120 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular 1-2-3-4-sinf o'quvchilaridir. Ilmiy tadqiqot jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, tajriba, anketa so'rovlari kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Bu borada bayon qilingan nazariy masalalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyati bilan bog'liqligini tahlil qilish maqsadida tadqiqot loyihasi doirasida respondentlar o'rtasida so'rovlar o'tkazildi.

Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati yuqori ekanligini ko'pchilik (17 nafar) o'qituvchi ta'kidlab o'tdilar.

Tadqiqotimizda quyidagi mezonlarga asoslangan holda tajribalar o'tkazildi:

- a) kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning integratsiyalashgan darslarga bo'lgan qiziqishlarini ortishini o'rganish;
- b) boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarning o'rni va ahamiyatga ega ekanligini aniqlash;
- v) boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

Bizning izlanishlarimizda boshlang'ich ta'lim jarayonida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishga e'tibor qaratildi. O'quvchilarni anketa savollariga bergan javoblari va yozgan ijodiy ishlari tekshirib ko'rildi va qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari obyektining tanlanishi tadqiqot doirasi va amaldagi tartib, shart-sharoitlarga kiritiladigan o'zgartirishlar chegarasi belgilab olinishi bilan bog'liq bo'lib, unda tadqiqotchi o'rganiladigan sohaning chegaralari va nima o'rganilishini aniqlashtiradi. Misol uchun, tajriba-sinov ishlari obykti sifatida quyidagilar olinishi mumkin: boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayoni; maktabgacha va umumiy urta ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik jarayoni; yuqori sinf o'quvchilarida dastlabki kasbiy tushunchalarni shakllantirish jarayoni va h.k.

Tajriba-sinov ishlari predmetini belgilashda obyekt qanday o'rganilishi; obyektida qanday xususiyat, munosabat va funksiyalar ajralib turishi; aynan olingan tajriba-sinov ishlarida obyektning qaysi jihatlari ochib berilishi lozimligi bilan bog'liq masalalar aks ettirilishi lozim. Uning funksiyasi tadqiqot jarayonida amalga oshiriladigan ta'sir doirasini qayd etish, chegaralash bilan bog'liq bo'ladi. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi, natija sifatida yaratiladigan va sinovdan o'tkazish bilan bog'liq masalalarni aniq va lo'nda ifodalarda shakllantirib olishga qaratiladi. Masalan; o'quvchilarning o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar majmuasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish; o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashuvini ta'minlovchi tarbiyaviy ishlar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

Tajriba-sinov ishlari dasturida vazifalarni belgilashda maqsadga erishish uchun amalga oshirilishi kerak bo'ladigan tadbirlar, olinadigan natijalar ketma-ket belgilab chiqiladi. Vazifalar belgilangan umumiy maqsadning nisbatan aniq qismlarga ajratilganga xususiy maqsadlari sifatida xam qaralishi mumkin. Masalan: ona tili metodikasi rivojining zamonaviy yo'nalishlarini tahlil qilish; o'qish samaradorligini belgilovchi pedagogik usullar hamda metodlar majmuasini aniqlash, ularni ahamiyatiga ko'ra tabaqalashtirish; ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida mehnat ta'limni samaradorligini oshirishga qaratilgan usul va metodlar majmuasini sinovdan o'tkazish.

Tajriba-sinov ishlari odatda uzoq muddat davom etishi sababli u muayyan bosqichlarga ajratilgan holda amalga oshiriladi. Tajriba-sinovning ajratiladigan bosqichlarida uning qismlari, oraliq natijalar hamda ularga erishish ketma-ketligi belgilab olinadi. Qismlar muayyan belgilangan vaqt oralig'ida tadqiqot ilmiy farazida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bosqichlar esa oraliq natijalarni aniqlash, ularni baholash va tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Shu sababli tajriba-sinov bosqichlarini belgilashda oraliq natijalar hamda ularga erishish ketma-ketligi, buning uchun zarur bo'ladigan muddatlar oldindan aniqlab olinadi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish va bu boradagi dasturlarni ishlab chiqishga oid mulohazalarimizni xulosalab, bu jarayonning barcha ishtiroklari uchun muhim bo'lgan quyidagi muhim jihatlarni ta'kidlab o'tmoqchimiz: tajriba-sinov ishlari amaldagi jarayonlarga o'zgartirish kiritishini nazarda tutuvchi tadbirlar majmuasi bo'lib, unda har bir tadbir oqibati baholanib, puxta o'ylangan holda ishlab chiqilmog'i, qo'llaniladigan metodika va yangi tajribalar ilmiy-metodologik jihatdan asoslangan hamda qiyosiy o'rganilgan holda tavsiya etilmog'i lozim. Ma'lumki, tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim darslarini integratsiyalashga pedagogik psixologik yondashuvning ilg'or usullarini aniqlash, unga ta'sir qiluvchi omillarni ishlab chiqish, muammoga doir tajriba-sinov natijalarini amaliyotga tavsiya qilishdir. Ilmiy-metodik tajribalar orqali chiqarilgan xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar, metodik tavsiyalar, ta'lim

texnologiyalari ishlab chiqilgan tizimning samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadorlikning ahamiyatini aniqlash maqsadida ilmiy izlanish usulidan foydalanildi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflardan nazorat sinflari va tajriba sinflarida ona tili va o'qish darslari misolida kuzatildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirildi, anketa so'rovlari asosida integratsiyalashgan darslarini tashkil qilish darajasini aniqlashga harakat qilindi.

3.2 Tajriba-sinov ishlari natijalari

Tajriba-sinov ishlarining 2-bosqichida Buxoro shahar 35- va 17- umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-, 2-, 3-, 4- sinflardan 8ta sinf tanlab olindi. Maktablarning A sinflari tajriba guruhi va B sinflari kuzatuv guruhi qilib belgilandi. Muammo yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan maktablarda darslar tashkil qilindi, kuzatildi. Masalaning yechimini topish jarayonida integratsiyalashgan darslarning imkoniyatlari o'rganilib, tahlil qilindi. Ushbu jarayonining natijasi sifatida o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortganligi aniqlandi. Ushbu faoliyat mobaynida integratsiyalashgan fanlardan ongli ravishda foydalanish namoyon bo'lganligiga amin bo'lindi.

O'quvchilarni darslarga ishtiroki va qiziqishi qiyosiy tahlil qilindi. Muammo yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan maktablarda darslar tashkil etildi, kuzatildi, tegishli ilmiy adabiyotlar o'rganildi, integratsiyalashgan darslar tashkil qilinib, bu darslarga bo'lgan o'quvchilarning qiziqishlari aniqlandi.

Tajriba sinflarida o'tkazilgan darslar davomida ilmiy izlanishlarimiz asosida ishlab chiqilgan, integratsiyalashgan ona tili va o'qish darslarida turli muammoli ta'lim elementlaridan, metodlardan foydalanildi. O'quvchilar bilan ta'lim jarayonida erkin muloqot, teng munosabat, ijodiy hamkorlik o'rnatildi. O'quvchilarning o'z fikrlarini tortinmay aytishlariga, muammolarni mustaqil hal etishlariga imkon berildi. Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'qituvchilar bunday

darslarni bajonidil o‘tdilar, o‘z fikr-mulohazalarini bildirib bordilar va keyingi darslarda bu mulohazalar inobatga olindi.

Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, dars jarayonida beriladigan har bir yo‘llovchi topshiriq hech kimni befarq qoldirmaydi va o‘quvchilarning faol ishtirokida mustaqil bajariladi. O‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishlarini ortishida 4-sinfdagi integratsiyalashgan ona tili va o‘qish darslarining imkoniyatlari, ayniqsa, kattadir. Ayni muammo yuzasidan 4-sinfda o‘tkazilgan integratsiyalashgan ona tili va o‘qish darsi namuna bo‘la oladi.

Tajriba butun o‘quv yili mobaynida 3-bosqichda o‘tkazildi:

1-bosqich – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish imkoniyatlarini o‘rganish.

2-bosqich – shakllantiruvchi bosqichning mazmuni.

3 -bosqich – o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish

Boshlang‘ich ta'limda integratsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish va dasturni o‘zlashtirishda o‘quvchilar faolligini oshirish uchun boshlang‘ich sinflarda quyidagi mutanosiblikda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Integratsiyalashgan fanlar nomi:

- O‘qish-ona tili
- O‘qish-tasviriy san'at
- O‘qish-odobnoma
- O‘qish-matematika
- Ona-tili va tabiatshunoslik
- Ona tili-matematika
- Ona tili-mehnat ta'limi
- Ona tili- odobnoma
- Ona tili-o‘qish-matematika
- Ona tili- o‘qish-tabiatshunoslik
- Ona tili-o‘qish-ingliz tili
- Ona tili- o‘qish-tasviriy san’at-odobnoma

Fanlararo aloqadorlik oʻrnatish har bir oʻqituvchining kreativligiga bogʻliq boʻlib, fanlar tizimini oʻzaro mutanosiblikda tanlash mumkin. Mazkur reja asosida bir qator integratsiyalashgan darslar tashkil qilindi

4 “A” va 4 “B” sinf oʻquvchilariga oʻqish, ona tili darslariga doir belgilangan mavzularda integratsiyalangan darslar tashkil etildi. 4- “A” sinf oʻquvchilari bu mavzularni anʼanaviy tarzda darslar sifatida oʻrgandilar, 4- “B” sinfida ona tili va oʻqish darslarini integratsiyalashgan holda oʻrgandilar. Ularga quyidagi topshiriqlar berildi va tekshirildi.

1-topshiriq. (oʻqish – ona tili – odobnoma)

Kim hunarsiz, kim bekor,

Oʻqish, ishdan qilsa or.

Unga loyiq maqol bor:

Bekorchidan el bezor.

Sheʼrdagi chiqish kelishigi qoʻshimchalarini toping va soʻroq bering. Hunar haqidagi fikringizni 4-5 gap orqali bayon eting.

2-topshiriq. (ona tili – oʻqish – tabiat)

Gul, gulchi, gulzor soʻzlari qanday soʻzlar? Ular ishtirokida hikoya tuzing. Gullarning qanday turlarini bilasiz?

3-topshiriq. (ona tili – matematika – tabiat)

Qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga qoʻndi. Gapidagi ot soʻz turkumiga oid soʻzlar nechta? Gap qaysi fasl haqida?

4-topshiriq. (oʻqish – ona tili)

Shunga koʻra deydilar:

Serquyosh Oʻzbekiston,

Baxtiyor bu zamonda

Yashnagan bogʻ-u boʻston. Sheʼrdagi “serquyosh oʻlka” iborasini qaysi soʻzlar bilan almashtirish mumkin?

5-topshiriq. – Qovun sayliga keldik. Qani, mehmon qilinglar! – dedi u. Parcha qaysi hikoyadan olingan? Qovun turlari haqida yozing.

Nazorat sinfi o'quvchilari 1-topshiriqni 83.3%, 2-topshiriqni 73.3%, 3-topshiriqni 80%, 4-topshiriqni 80%, 5-topshiriqni 76.6 bajardilar. Tajriba sinfi esa 1-topshiriqni 93.3%, 2-topshiriqni 83.3%, 3-topshiriqni 86.6%, 4-topshiriqni 90%, 5-topshiriqni 83.3% bajardilar. Bundan ko'rinib turibdiki, tajriba sinfi 9% samaradorlikka erishgan.

Nazorat va tajriba guruhlarini solishtirish natijasida quyidagicha natijalar olindi:

I nazorat ishlari natijalari

3.2.1-jadval

Topshiriqlar Sinflar		1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq	4-topshiriq	5-topshiriq	Umumiy foiz
Tajriba 30	O'quvchi soni	28	25	26	27	25	
	%	93.3	83.3	86.6	90	83.3	87.3
Nazorat 30	O'quvchi soni	25	22	24	24	23	
	%	83.3	73.3	80	80	76.6	78.64

3-sinflar uchun ham xuddi shunday integratsiyalangan darslar tashkil etildi. Nazorat sinflari darslarni an'anaviy tarzda o'rgandilar. Quyidagi nazorat topshiriqlari tuzildi va tekshirildi.

1-topshiriq. (o'qish – ona tili – tasviriy san'at)

Havo mayin, osmon tip-tiniq,

Ochilibdi gullar rang-barang.

Ariqlarning tubi ko'rinar,

Daraxtlarning bargi quyoshrang.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. She'r asosida rasm chizing.

2-topshiriq. (ona tili – o'qish)

Keng osmonga tikilaman...

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang. Hikoyani davom ettiring.

3-topshiriq. (ona tili – odobnoma)

Umid duradgorlik to'garagiga qatnaydi.

Gapdagi bosh bo'laklarni aniqlang. Duradgorlik kasbi haqida yozing.

4-topshiriq.(o'qish – ona tili- tabiat)

“Opa-singil daryolar” ertagi muallifi kim? Ertakda bosh harf bilan yozilgan joy nomlarini ayting.Yurtimizdagi qaysi darsyolarni bilasiz?

5-topshiriq. (o'qish – tabiat – matematika)

Uzumlar ham bir oila –

Siz va bizday yashar ekan.

Urug'-aymoq deganidayin,

Turi yuzdan oshar ekan.She'ri muallifi kim? Uzumlarning necha xil turini bilasiz? Sanab bering.

II nazorat ishlari natijalari

3.2.2-jadval

Topshiriqlar Sinflar		1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq	4-topshiriq	5-topshiriq	Umumiy foiz
Tajriba 30	O'quvchi soni	25	27	26	25	25	
	%	83.3	90	86.6	83.3	83.3	85.3
Nazorat 30	O'quvchi soni	23	22	24	24	23	
	%	76.6	73.3	80	80	76.6	77.3

Tajriba guruhi o'quvchilari 1-topshiriqni 83.3%, 2-topshiriqni 90%, 3-topshiriqni 86.6%, 4-topshiriqni 83.3%, 5-topshiriqni 83.3% bajardilar. Nazorat guruhi o'quvchilari 1-topshiriqni 76.6%, 2-topshiriqni 73.3%, 3-topshiriqni

80%, 4-topshiriqni 80%, 5-topshiriqni 76.6% bajardilar. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba sinflarida nazorat sinflariga nisbatan samara 8% ga oshgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olishda integrativ ta’limdan foydalanish yo‘l – yo‘riqlari bilan tanishtirish, ushbu faoliyatning har bir komponenti ahamiyatini ochishga qaratilgan tajriba sinov ishimiz natijalari ijobiy natija ko‘rsatdi. Tadqiqot ishi davomida darslarda integratsiyaning qo‘llanilishi o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishini ortishiga, bu esa bevosita ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va dars ishlanmalari asosida uyushtirilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan samarani berdi. Bunday darslar boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirdi, ularda bilimlarni o‘zlashtirishga ishtiyoq uyg‘otib, mustaqil fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga yaqindan yordam berdi. Bundan tashqari tadqiqotimiz jarayonida maktabda ishlaydigan yosh mutaxassislar bilan muloqotda bo‘lib, ular uchun kerakli mavzularda bir nechta integratsiyalashgan darslar namunalarini yaratdik. Quyida o‘qituvchilar sinab ko‘rgan va ularga ma’qul bo‘lgan dars ishlanma namunalaridan keltiramiz: (1-ilovaga qarang)

III BOB BO'YICHA XULOSA

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan keyin o'quvchilarda bilish faolligi ortdi, o'qishga, o'quv fanlariga bo'lgan qiziqish ortdi. Integratsiyalashgan darslar sinfda bolalarni ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini yaratish bilan birga, darsga bo'lgan ijobiy emotsional kayfiyatni ko'tarishga xizmat qildi. O'quvchilarda fikrlarini erkin ifodalash hissi va muloqotga kirishuvchanlik ortdi, o'qishga, o'rganishga bo'lgan havas uyg'ondi, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik kabi ijobiy sifatlar ortdi. Tajriba-sinov ishlari yakunlari tahlili ilmiy farazimizning asosli ekanligini ko'rsatdi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy manbalarning tahlili sharq mutafakkirlari, xorij va o'zbek pedagoglari integratsiyalashgan darslarni amaliyotga tatbiq etishga harakat qilganliklarini ko'rsatdi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan omillar ichida darslarni integratsiyalashgan asosda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan darslarni olib kirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonini integratsiyalashgan darslar asosida tashkil etishning qulayligi shundaki, unda o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirishda olamni yagona bir butunlikda ekanligi, tabiatdagi mavjud o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liqlikda ekanligi haqida ta'limotga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratiladi.

Magistrlik dissertatsiyasida to'plangan ma'lumotlardan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari bilan mutaxassislik fanlaridan olib boriladigan mashg'ulotlarda, pedagogik amaliyotda, maxsus seminarlarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda foydalanish mumkin.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida integratsiyalashgan ta'limni tashkil etishga oid quyidagilarga e'tibor qaratish kerakligi aniqlandi.

1. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, ya'ni mavzulararo uyg'unlikni ta'minlash. Bunda boshlang'ich ta'limdagi fanlar mavzularning o'zaro mos kelishi, darsning maqsadi inobatga olinadi.

2. Modullashgan integratsiyada turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda beriladi.

3. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o'quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo'lgan o'quv materiallari bilan uyg'unlashtiriladi.

4. Ona tili va o'qish darslarida fanlararo aloqadan foydalanilganda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati yanada ortishi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi.

Hozirgi kun pedagogikasi pedagogdan nafaqat o'quvchiga o'z fanidan chuqur bilim, ko'nikma, malaka hosil qilishni, shu bilan birgalikda o'zi hamda o'quvchini ijodiy faoliyatga, izlanishga muntazam yo'naltirishni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishga va uni o'tkazishga alohida e'tibor bermog'i lozim. Masalan: sinfdan tashqari mashg'ulotlarda integrativ bilimlarni, O'ZM (O'tkir zehnlilar musobaqasi), olimlar bilan badiiy uchrashuv kechalari, "Zakovot" intellektual o'yini, to'garak mashg'ulotlari, tabiat haftaligi va boshqa shu kabi tadbirlar va ilmiy konferensiyalarda ham berib borishni lozim topdik.

Bu kabi fikrlarni yana bir qator mualliflar tomonidan ham e'tirof etilganligi, biz tanlagan muammo dolzarb muammolardan biri ekanligi haqidagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, bunday integratsiyalashgan darslar o'quvchilarni olamni yaxlit tushunishga, har tomonlama bilimga ega bo'lgan shaxslar qilib tarbiyalashga zamin yaratadi. Markazida shaxs turgan milliy modelimiz ham aynan shunday intellektual shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normativ-huququiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2016. - 488b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.// Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T. –2020.
7. Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T: Ma'naviyat , 2008. – 108 b.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:O'zbekiston, 1998.- 63 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2008.- 38b.
10. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. -T.: 1997.
11. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -T.: 1997.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarida magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi haqida NIZOM.-T.:2018,-20b

13. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. 3-sinf Ona tili O‘qituvchi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2019.

14. Ikromova.R, G‘ulomova.X, Yo‘ldosheva.Sh, Shodmonova.D 4-sinf Ona tili darsligi. T.: O‘qituvchi 2017, – 190 b.

15. Matchonov.S, Shojalilov.A, G‘ulomova.X, Sariyev.SH, Dolimov.Z 4-sinf O‘qish kitobi darsligi T.: Yangiyo‘l poligraf servis 2017. – 214 b.

16. Umarova M., Xamroqulova X., Tojiboyeva R. 3-sinf “O‘qish kitobi”- “O‘qituvchi” nashriyot- matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2019.

17. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.- Toshkent 2017.

2. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.

18. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi.2006,- 160 b

19.Hamroyev A.R. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish. Ped.fan.nom.dis. – T.: 2005, 141 b.

20.Ibragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan avtoreferati. – T.: 2005.- 40 b.

21. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. T.: Ilm-Ziyo 2012, - 12 b.

22.IshmuxamedovR.J., Yuldashev.M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol 2016.

23.Mahmudov M.H. Ta’limni didaktik loyihalsh printsiplari .//“Pedagogik mahorat”jurnali,2001,3-son,B.24-32

24. Mavlonova.R.A, Raxmonqulova.N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi - T.: Ilm-Ziyo 2009. - 192b.

25. Mavlonova.R.A, Raxmonqulova.N . Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. - T.: G'.G'ulom 2013 .
26. Mavlonova.R.A, Voxidova.N, Raxmonqulova.N Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent 2010.
27. Mavlonova.R va boshqalar. Pedagogika. – T. O'qituvchi, 2002, - 384b.
- 28.Roziqov O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi – T.: Yangi asr avlodi ,2005,- 385 b.
- 29.Roziqov O. va boshqalar. Didaktika –T.: Fan ,1997,-266 b
30. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003, –172 b.
- 31.Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari–T.:2006,–163b.
- 32.To'xtaxo'jayeva M.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi – T.: Moliya-iqtisod 2008.– 208 b.
- 33.O'zbek tilining izohli lug'ati Madvaliyev A. tahriri ostida Toshkent-2009.
- 34.Xodjayev.B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-standart, 2017.
35. Shodmonova Sh.S., Mirsagatova N.S., Ibragimova G.N., Mirsoliyeva M.T. Pedagogik texnologiyalar (metodik qo'llanma). –T.: Fan va texnologiya, 2011, -140 b.

3.Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

36. www.edu.uz - O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi
37. www.kitob.uz
38. www.LEX.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi
39. www.multimedia.uz - multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi
40. www.pedagog.uz
41. www.tdpu.uz

42. www.uzedu.uz - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti
43. www.ziyonet.uz materiallari